

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**PEDAGOGIKA FAKULTETI**

**“MAKTABGACHA TARBIYA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM” KAFEDRASI**

**“Boshlang'ich sinflarda o'zlashtirmovchilikni yuzaga keltiruvchi  
omillar” mavzusidagi**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

Bajardi: “Boshlang'ich ta'lim va sport  
tarbiyaviy ish” ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi  
4 kurs talabasi **Qulmurudova O.**

ILMIY RAHBAR:  
**p.f.n.Norbosheva M.**  
**13-maktab direktori Suvonova D.**

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi.

\_\_\_\_\_sonli bayonnomasi “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_2013 yil

**TERMIZ – 2013**



**MAVZU: BOSHLANG'ICH SINFLARDA  
O'ZLASHTIRMOVCHILIKNI YUZAGA KELITIRUVCHI  
OMILLAR**

**REJA:**

**KIRISH**

**I NAZARIY QISM**

- 1.1 O'zlashtirmovchi o'quvchilar muammosining pedagogika va psixologiyada o'rganilishi
- 1.2 O'zlashtirmovchilikni vujudga keltiruvchi omillar haqida
- 1.3 Boshlang'ich sinflarda o'zlashtirmovchilikning oldini olishga yo'naltirilgan tadbirlar

**II AMALIY QISM**

- 2.1 . O'zlashtirmovchilikni vujudga keltiruvchi omillarni eksperimental o'rganish
- 2.2 “Ortiqchasini o'chirish”, “Muhim belgini ajratish” metodikalaridan foydalanish orqali o'zlashtirmaslik sabablarini aniqlash
- 2.3 Tajriba va natijalar tahlili

**XULOSA VA TAVSIYALAR**

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

**ILOVALAR**

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Respublikamizda ta'lim va tarbiya borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning tub mohiyati bilimdon, aqlan rivojlangan, ongli, zamonaviy dunyoqarashga ega, jismonan sog'lom, axloqan pok, erkin, ijodkor, komil insonni shakllantirishdan iborat. Mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, farzandlarimizni ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, ularni XXI asr talablariga to'liq javob beradigan shaxslar qilib voyaga yetkazish barchamizning ezgu vazifamiz.

Har tomonlama yetuk, sog'lom, mustaqil fikrlovchi shaxslarni tarbiyalashda boshlang'ich sinflarda beriladigan ta'lim va tarbiyaning roli beqiyosdir, chunki o'quvchi oladigan bilimlari, ko'nikma va malakalariga asos xuddi shu boshlang'ich sinflarda qo'yiladi. Bu haqda yurtboshimiz I.A.Karimov 1997-yilda bo'lib o'tgan Oliy Majlisning IX sessiyasida so'zlagan nutqlarida quyidagilarni ta'kidlagan edilar: "Eski ta'lim tiziminig eng yomon qusuri boshlang'ich ta'limga ikkinchi darajali ish deb qaratyotganligimizdadir. Ochiq aytishimiz kerak, bilimi sayoz o'qituvchilar ham boshlang'ich sinfga dars beraveradi..."

Vaholanki, bolaning dunyoqarashi va salohiyati shakllanadigan boshlang'ich sinflarga eng yetuk, eng tajribali murabbiylar biriktirib qo'yilishini oddiy mantiqini o'zi talab etadi."

Baxtga qarshi har bir sinfda 3-4 ta bo'lsada, o'zlashtirmoqchi o'quvchilar mavjud. Bunday o'quvchilarning bilish jarayonlari orqaga qolibgina qolmay, bevosita sinfdoshlarining ham o'zlashtirishlariga, bilim asoslarini egallashlariga ma'lum darajada salbiy ta'sir ko'rsatadi. Xuddi shu sababli, boshlang'ich sinflardagi o'zlashtiruvchi o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini o'rganishi va uni korreksiya qilish dolzarb masala hisoblanadi.

Bugungi kunga kelib, ta'lim sohasida o'zlashtirish xususida keng fikrlar bayon etilmoqda. O'zlashtirish tushunchasi o'z mohiyatiga ko'ra kompleks muammo bo'lib, u jamiyatning iqtisodiy siyosiy, ma'rifiy, madaniy tarbiyalanganligi, maktab o'qituvchilarining zamonaviy o'qitish vositalari, usullari, tamoyillari

bo'yicha atroflicha bilimga ega ekanliklari, yoshlarning o'qish-o'rganishga ishtiyoqmandligi bilan uzviy bog'liq hodisadir. Mustaqil mamlakatimizning erkin fuqarolari tilimiz va tariximizning inson hayotidagi ahamiyatini, milliy va umuminsoniy qadriyatlarini har qachongidan aniqroq, to'laroq his qila boshlashdi. Maktab hayotida tub o'zgarishlar yuz berdi, o'qituvchilar faoliyati sifat jihatdan yangilanish bosqichini o'z boshidan kechirmoqda. Mamlakatimizning iqtisodiy taraqqiyotida, jamiyat a'zolarining fikrlashida, tarbiyachilarining faoliyatida, yoshlarni fan-texnika, kasbga chanqoqligida paydo bo'lgan tub o'zgarishlar o'zlashtirish muammosini atroflicha asoslash har tomonlama tadqiq qilish ehtiyojining yanada oshganligidan dalolat beradi. Bolalarning o'zlashtirishlarini ta'minlash uchun ularga didaktik ta'sir tadbirlarini ishlab chiqishga ehtiyoj tug'ildi.

Iqtisodiy va siyosiy sohalardagi barcha islohotlarning pirovard maqsadi yurtimizda yashayotgan barcha fuqorolar uchun munosib hayot sharoitlarini tashkil qilib berishdan iboratdir . Aynan shuning uchun uchun ma'naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash ma'lum va maorifni yuksaltirish milliy uyg'onish xosiyatini ro'yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga etgazish davlatimizning eng muhim vositalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Umumiy va maxsus bilimlarga ega ongli, tafakkuri bilan turli "izm" lardan ozod , zamonaviy dunyoqarashiga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga voris bo'lgan insonlarga fuqorolik jamiyatini barpo etishga va shakllantirishga qodir bo'ladi. Ushbu fikrlardan ko'rinib turibdiki, shaxsda bilim, dunyoqarashi, e'tiqodining kerakli materiallarni to'plash va psixologik tahlil asosida bayon etish boshlang'ich sinflarda o'zlashtirmovchilikka ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, chora tadbirlar tizimini ishlab chiqish shaxs kamolotining asosiy mezonini sanaladi. Shu bois o'quvchilardagi o'zlashtirmovchilik muammosini o'rganish muhim sanaladi.

### **Bitiruv malakaviy ishinining maqsadi:**

Ushbu ishdan ko'zlangan bosh maqsad boshlang'ich sinf o'quvchilari darslarni o'zlashtira olmasliklarining pedagogik va psixalogik sabablarni

aniqlash va o'zlashtirmovchiligini bartaraf etish bo'yicha korreksion dastur ishlab chiqishdan iborat.

**Bizning ilmiy farazimizga ko'ra:**

1) Bolaning maktabda o'qishga psixalogik jixatdan tayor bo'lmasdan turi kelishi.

2) O'quvchilarda ixtiyoriy diqqat, assosinativ xotira, taafakkur aneratsiyalari hamda ijobiy o'quv motivatsiyasining sust shakllanganligi .

3) Ota –Onaning farzandi o'qishini nazorat qilmasligi hamda o'qituvchining bunday o'quvchilar bilan individual shug'ullanmasligi . Agar bunday o'quvchilar bilan maxsus individual va guruhiiy shugullansa, bilim jarayonlari rivojlantirilsa , o'zlashtirmaslikning kamayishga olib kelishi mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishining vazifalari.**

Belgilangan maqsad va ilmiy farazlardan kelib chiqqan holda , tadqiqot ishini olib borish uchun quyidagi vazifalarni belgiladik:

1) Tadqiqot ishi mavzusiga doir maxsus adabiyotlar bilan tanishib, tegishli materiallarni to'plash va psixolik pedagogik tahlil asosida bayon etish.

2) Boshlang'ich sinflarda o'zlashtirmovchilikka ta'sir etuvchi omillarni aniqlash. 3) O'zlashtirmovchi o'quvchilar bilan olib boriladigan korreksion dastur ishlab chiqish.

4) Tadqiqot ishi muammosiga mos metodika tanlash, aniqlovchi, shakllantiruvchi, nazorat tajribalarini o'tkazish.

5)Boshlang'ich sinflarda o'zlashtirmovchi o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini o'rganish maqsadi, mazmuni va tadqiqot ishining amaliy ahamiyati yuzasidan psixologik –pedagogik tavsiyalar ishlab chiqarish.

Belgilangan vazifalar har tamonlama yetuk, ijodiy va mustaqil fikrlovchi insonni o'rganish, tarbiyalash, o'quvchi va yoshlarni aqliy faolligini yuksaltirish muammolari bilan uzviy bo'g'liqligi tufayli muhim ahamiyatga egadir. Malakaviy bitiruv ishining predmeti.

**Ushbu bitiruv malakaviy ishining predmeti:** boshlang'ich sinflardagi o'zlashtirmovchi o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini o'rganishdan iborat.

### **Bitiruv malakaviy ishining ob'yekti .**

Ushbu ish yuzasidan psixologik-pedagogik tadqiqotlar Termiz shahridagi 13- maktab boshlang'ich sinf o'qituvchilari.

### **Bitiruv malakaviy ishda qo'llanilgan metodlar .**

- 1) Kuzatish metodi orqali o'zlashtirmovchi o'quvchilar dars jarayonida va tanaffuslarda kuzatiladi.
- 2) Suhbat metodi orqali o'zlashtirmovchi o'quvchilarning xarakter xususiyatlari, o'qishga munosabatlarini o'rganish .
- 3) Ortiqcha so'zni o'chirish metodikasi yordamida tafakkur jarayonlarni o'rganish.
- 4) Muhim belgini ajratish metodikasi yordamida tafakkur jarayonlarni o'rganish .

### **Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati.**

O'quvchilarning o'zlashtirmasligi oldini olish uchun chora tadbirlar tuzish, ularning psixalogik xususiyatlarini o'rganish, amalyotda ushbu yuriqnomalardan foydalanish ishining amaliy ahamiyatini belgilaydi.

### **Bitiruv malakaviy ishining tuzulishi.**

Ushbu malakaviy ish reja asosida yoritilgan bo'lib , kirish, ikki bob, paragraflar, xulosa va tavsiyalardan tuzilgan.

**Birinchi: bobda** o'zlashtirmovchi o'quvchilar psixalogiyasining o'rganishi , o'zlashtirmovchilikni keltirib chiqaruvchi omillar umumlashtirilgan.

**Ikkinchi: bobda** o'zlashtirmovchi o'quvchilar tafakkuri o'rganilgan, natijalar tahlil qilingan, foydalanilgan metodikalar, adabiyotlar ro'yxati, xulosa va tavsiyalar keltirilgan.

### **1.1.O`zlashtirmovchi o`quvchilar muammosining pedagogika va psixologiyada o`rganilishi.**

Har bir alohida olingan o`zlashtirmovchilikning vujudga kelishi tarixi har xildir. Bu shaxsning individual xususiyatlari va atrofdagilar bilan munosabatlariga, xususiyatlariga bog`liqdir.

P.P.Blanskiy “Qiyin o`quvchilar” asarida psixik va jismoniy tayyorgarlikning turli xususiyatlarning birikuvi quyidagi tiplarga ajratilgan.

P.P.Blanskiy birinchi o`rinda jismoniy sog`liqqa e`tibor bergan . Muallif ishlarida psixologik xususiyatlarga yetarlicha e`tibor berilmagan. P.P.Blanskiy o`zlashtirmaslikka olib keladigan . Asosiy sababni ajratib ko`rsatgan. Birinchidan, o`quvchi sog`lig`iga bog`liq, ikkinchidan o`zini to`g`ri tashkil eta olmaslik, uchinchidan, o`qishga qiziqishining yo`qligi, to`rtinchidan, o`quvchining bo`yi rivojlanganligi.

P.P. Blonskiy o`zlashtirmovchi o`quvchilarni quyidagi tiplarga ajratadi:

1.Tip o`zlashtirmovchi o`quvchilarga taxminan 50% jismonan bush va aqliy rivojlangan o`quvchilar kiradi.

11.Tip o`zlashtirmovchi o`quvchilarning taxminan 25% jismonan kuchsiz.

111.Tip o`zlashtirmovchi o`quvchilarning taxminan 10% jismonan normal, lekin aqlan rivojlanmagan o`quvchilar .

1V. Tip o`zlashtirmovchi o`quvchilarning taxminan 15% oilaviy sharoitga ko`ra maktabdan ajralib qolgan o`quvchilar.

Shunday qilib, o`quvchilar tiplari klassifikatsiyasini asosiy ikkinchi ichki sababga ko`ra, jismoniy bush va aqliy rivojlanmagan. Muammosini o`rganishda muhim hissa bo`lib qo`shildi. L.S.Slavinanig “O`zlashtirmovchi o`quvchilar turli guruhlarga bo`lingan”.

1. O`qishga nisbatan noto`g`ri munosabat shakllangan o`quvchilar .
2. Materiallarni qiyinchilik bilan o`zlashtiruvchi o`quvchilar.
3. O`quv ishida malaka va usullari shakllangan.
4. Mehnat qila olmaydigan o`quvchilar.
5. Bilim va o`qishga malaka va usullari shakllangan .

Bunda turli guruhdagi o`quv o`quvchilar shaxsining har xil tamonlari orasidagi munosabat tug`risidagi munosabat tug`risidagi savol ochiq qoladi.

Avvalo o`zini kuchsiz boshqarish, o`z psixik jarayonlari boshqara olmaslik, o`quv ishining oqilona usullari shakllanmaganligini , o`quv masalalarini ychishda o`ylashni istamaslik ,bilimlarini shartli o`zlashtirishi xos. Bunday o`quvchilar aqliy ishdan qochishga intilib, faol fikrlash zaruratidan ularni xalos qiladigan har- xil aylanma yo`llarni izlaydilar.

O`zlashtirmovchi o`quvchilar aqliy taraqqiyot darajasining sezilarli pasayishi doimiy intellektual zo`riqmaslik, o`zini- o`zi boshqarish natijasi bo`lishi mumkin.

N.Amenchinskaya o`tkazgan tatqiqotlaridan mal`um bo`lishicha, o`lashtirmovchi o`quvchilar diqqati , xotirasida quyi ko`rsatgichlar olinishi, bu psixik jarayonlarida patalogik o`zgarishlarning natijasi emas , balki to`gri ishlash odatlarining mavjud emasligi bilan bog`liqdir.

N. A. Menchinskaya o`zlashtirmovchi o`quvchilar tipologiyasini ishlab chiqishda, birinchidan, tafakkur faoliyati xususiyatlari , ikkinchidan, shaxsning yo`nalishiga e`tibor berdi. Muallif o`quv faoliyatini tashkil qila olish ko`nikmasini barcha o`zlashtirmovchi o`quvchilarga xos bo`lgani uchun tiplarga ajratish mezoni sifatida qaraydi.

Shunday qilib, o`zlashtirmovchi o`quvchilarni tiplarga ajratishda shaxs xususiyatlarining ikki asosiy kompleksining turli birikmasi asos qilib olinadi.

Birinchisi- tafakkur faoliyatining xususiyatlari bilan bog`liq.

Ikkinchisi-o`quvchining “ichki pozitsiyasini” o`qishga munosabatning bildiruvchi shaxsining yo`nalganligi bilan bog`liq.

1.Tafakkur faoliyatining quyi darajasi o`qishga nisbatan ijobiy munosabat va o`quvchi holatining saqlanishi birikishi mumkin.

2.Tafakkur faoliyatining yuqori darajasi o`qishga nisbatan salbiy munosabat “qisman ” yoki to`liq o`quvchi holatining yo`qolishi bilan birikishi mumkin .

3. Tafakkur faoliyatining quyi darajasi o`qishga nisbatan yoki to`liq o`quvchi "holatining" yo`qolishi bilan birikishi mumkin.

Ajratilgan xususiyatlar birikmasining o`ziga xosligi o`zlashtirmovchilikni yo`qotish yo`llarini aniqlab beradi.

Birinchi tipga kiritilgan o`quvchilarning ba`zi umumiy xususiyatlari mavjud. Ularga tafakkur operatsiyalarini umumlashtirish va boshqalarning bo`yi rivojlanganligida namoyon bo`ladigan quyi o`quvchilikka xos bunday o`quvchilar uchun o`quv materiallarini o`zlashtirish jiddiy qiyinchiliklarni chiqaradi.

Aqliy masalarini yechishda ularda "mahsuldor bo`lmagan yondashuv"

vujudga keladi, ulardan foydalanishga intiladilar. Bundan o`quvchilar guruhi uchun o`qishdagi muvaffaqiyatsizlik axloqiy nizo manbayi hisoblanmaydi. Ular: "Men masalalarni yecha olmayman, " Men uchun ona tili qiyin", deb xotirjam aytadilar. Bunday nizolarning mavjud emasligini o`qishga nisbatan ijobiy yo`nalishi va o`quvchi holatining saqlanishga olib keladi. Shu bilan birga ularda bilimlarga nisbatan qiziqishning yo`qligi, maktabda o`zlashtiriladigan, har qanday bilimlarga nisbatan qiziqishning yo`qligiga xos. Ular kelajak rejalarini o`qishi bilan bog`lamaydilar.

O`zlashtirmovchi o`quvchilarning ikkinchi tipi.

Bu tipga kiruvchi o`quvchilarda tafakkur faoliyatining yuqori sifati o`qishga nisbatan salbiy munosabat bilan birikadi.

Bunday o`quvchilar maktabga yaxshi tayyorlani, yaxshi o`qish istagi bilan kelishadi. Ammo ularning o`qish ishlari sifatiga, faqat o`zlariga yoqqan narsa bilan shug`ullanishiga o`rganib qolganligi salbiy ta`sir ko`rsatadi. Bunday o`quvchilarda ta`lim jarayonida o`z -o`zini tashkil qilish, u yoki bu fan unga yoqish, yoqmasligiga bog`liq bo`ladi.

Bunday nizo intellektual imkoniyatlarning o`quv ishlarida kam ro`yobga chiqarilishi tufayli sodir bo`ladi.

Agar bunday nizo ta'limning dastlabki bosqichlarida vujudga kelsa, faqatgina o'qishga nisbatan salbiy munosabatni keltirib qolmay, balki o'quvchining sinf jamoasidan begonalashuviga ham olib keladi.

Bu holat bir qator salbiy axloqiy sifatlarning vujudga kelishiga olib keladi. Z.I.Kalimkova o'zlashtirmaslik asosida nima turishiga qarab, o'zlashtirmovchi o'quvchilarni ikki tipga ajratadi.

1. Pedagogik qarovsiz bolalar .

2. O'quvchanligi quyi o'quvchilar.

Birinchi tipga noqulay pedagogik sharoitlar tufayli o'qishda orqada qoladigan o'quvchilar kiradi.

Ikkinchi tipga o'zlashtirmaslik ijtimoiy pedagogik va biologik omillarning noqulay ta'siri bilan bog'liq o'quvchilar kiradi.

Uquvchanligi quyi o'quvchilar. Bu tipga pedagogik qarovsizligi quyi o'quvchanlik, ya'ni bilimi faoliyati uchun aql sifatlarining noqulay shakllanishi bilan qo'yilgan o'quvchilar kiradi. Ular quyidagi guruhlariga ajratilgan:

A) Zaif bolalar

B) Asabiy bolalar

C) Psixik taraqqiyotda vaqtincha orqada qolgan bolalar

D) Chapaqay bolalar .

Bunday o'quvchiga qo'llaniladigan choralar ham bir xil . Bolaning ota-onasi maktabga chaqirilib, o'g'li yoki qizi bilan shug'ullanayotganligi haqida ma'lumot qilinadi. Yoki o'qituvchi oqibati haqida o'ylamasdan o'quvchini butun sinf oldiga baqirib haqoratlaydi, izza qiladi. Ko'pchilik tajribali o'qituvchilar o'quvchilar ko'p kasal bo'luvchi zaif bolalar organizmi darmonsizligi tufayli ishga va o'qishga qobiliyatlari pasayadi.

Biror narsadan qattiq qo'rqqan bolalarda asabiylashish alomatlari, duduqlanish bo'ladi. Bunday bolalar bilan o'qituvchi maxsus shug'ullanishi kerak.

O'quvchilar o'zlashtirmasligining sabablaridan biri - ko'pincha, bolaning psixik taraqqiyotdan vaqtincha orqada qolishi bilan bog'liq. O'zlashtirmaslik 50%

psixik taraqqiyotda orqada qolish bilan , 24% xulq –atvorning buzilishi, 4% aqliy yetishmaslik va nutqning rivojlanmaganligi bilan bog`liq.

Psixik taraqqiyotda vaqtincha orqada qolish bolada turli sabablarga ko`ra vujudga kelishi mumkin . Bunday omillarning markaziy nerv sestimasiga noqulay ta`sir etishi natijasida eng nozik insoniy funksiyalarning taraqqiyoti to`xtaydi. Bola qanchalik kichik bo`lsa, bu omillar shunchalik ahamiyatlidir.

Xuddi shu sabablarga ko`ra mehribonlik uylarida kun-u tun ishlaydigan bog`cha va yaslilarda tarbiya oladilar.

Ko`pincha o`qituvchilar o`zlashtirmovchi o`quvchi bilan mashg`ulotlar o`tkazdilar. Ayrim hollarda o`qituvchilar sababini tushunmasdan o`zlashtirmovchi o`quvchilarni “qobilayatsizlar”, “aqli etishmaydiganlar” safiga kiritib qo`yadilar. Tez orada o`qituvchilar o`quvchilarga e`tibor bermay qo`yadilar.

Keyinchalik bunday o`quvchilarda maktabga nisbatan salbiy tushunchalar rivojlanadi va shakllanadi. Bunday o`quvchilarga mahsuldor usullar qo`llanilsa, umumta`lim maktabida bemalol o`zlashtiruvchi o`quvchilar qatorida bo`ladilar.

A.I.Murachkovskiy o`zlashtirmovchi o`quvchilar tiplarini ajratishda quyidagilarga etibor beradi:

Birinchidan, aqliy faoliyat xususiyati bilan bog`liq.

Ikkinchidan, shaxsning yo`nalganligi o`quvchining ichki holati , o`qishga munosabati yuqorida ifodalanishi mumkin.

1. Aqliy faoliyatning quyi darajasi o`qishga iobiy holatini saqlaydi.
2. Aqliy faoliyatning yuqori darajasi o`qishga salbiy munosabat bilan birikishi natijasida o`quvchi “holati qisman yoki to`liq yo`qolishi” ro`y beradi.

Ajratilgan xususiyatlar birikishidagi o`ziga xoslik o`zlashtirmovchi o`quvchilar tipi va o`zlashtirmaslikni yuqotishini belgilaydi.

A .I. Murachkovskiy har bir tip ichida quyidagi ikki belgi asosida turlarini belgilaydi:

A) O`quvchilar o`qishdagi muvaffaqiyatsizlikni to`ldirilgan vositalar mavjud emasligi.

T.B Stultinos bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarning quydagi to'rt tipini ajratgan:

**Birinci tip** –tasodifiy uzoq vaqt kasal bo'lishi hisobiga orqada qoladiganlar .

**Ikkinchi tip** –eslab qoladiganlar.

**Uch inchi tip** –yuzaki faol o'smirlar, tafakkur operatsiyalarini egallaganlar.

T .A. Vlasova , M.S. Tevenir tadqiqotlarida me'yordan og'gan bolalar o'rganiladi. Ular bunday bolalarni quyidagi ikki guruhga ajratadilar:

Birinci guruhga jismoniy va aqliy taraqqiyoti sust bolalar kiradi. Tadqiqotchilarning takidlashicha, ularning taraqqiyotda orqada qolishining sababi - bosh miya po'stlog'ida peshona qismining sekin yetilishi bilan bog'liq. O'qishda orqada qolib, ular yanada asabiy bo'lib, o'qituvchilar uchun yanada qiyinchilik tug'diradi.

Mualliflar yuqorida klassifikatsiyasi asosida taraqqiyotda chetlashgan bolalar bilan ishlaydigan o'qituvchilar uchun qimmatli tavsiyalar ishlab chiqadilar .

Yuqorida biz keltirgan o'zlashtirgan o'quvchilarning tiplarini bilish o'quvchilarga individual yondashuvini amalga oshirishga katta yordam beradi.

Psixolog va pedagoglar o'zlashtirmaslikning ko'plab sabablarini, tiplarini aniqlaganlari hamda ikkinchi yilga qoldirilishi va ommaviy o'zlashtirmaslikni yo'qotishi bo'yicha didaktik tarbiyaviy ishning tashkiliy –pedagogik shakl va uslublarning guvohi bo'ldik.

Pedagogik olimlar va o'qituvchilarning uzoq vaqt o'zlashtirmaslikni bartaraf etishga ishonchli o'quv –tarbiya jarayonining xususiyatlarini o'rgandilar.

Psixologlar o'quv jaryonida namoyon bo'ladigan o'zlashtirmovchi o'quvchilarning shaxs xususiyatlariga, ular o'quv faoliyatining o'ziga xosliklarning aniqlashga e'tibor qaratadilar.

O'zbekistonlik psixologlardan Y. F.G'oziyev, S.A. Axunjanova, T.M. Adizova, Y.Z. Usmonova, A.X.Yugay, T.K.To'laganovalarning ishlarida ham tahlil qilingan.

Lekin ularning hech birida aynan boshlangich sinflardagi o'zlashtirmovchilik muoammosi maxsus ilmiy tadqiqot predmeti sifatida tahlil etilmaganini takidlash joiz.

Uzoq vaqt o'zlashtirmaydigan o'quvchilar shaxsi xususiyatlarini chuqur o'rganish, qanday pedagogik sharoitlarda qiyinchiliklarini bartaraf etishga yordam beradi. Maktab dasturini muvaffaqiyatli o'zlashtirishga yordam beradi.

-Bugungi kunga kelib, ta'lim sohasida o'zlashtirish xususida keng fikrlar bayon etilmoqda. «O'zlashtirish» tushunchasi o'z mohiyatiga ko'ra kompleks muammo bo'lib, u jamiyatning iqtisodiy jihatdan rivojlanganligi, mamlakat fuqarolarining siyosiy, ma'rifiy, madaniy tarbiyalanganligi, maktab o'qituvchilarining zamonaviy o'kitish vositalari, usullari, tamoyillari bo'yicha atroflicha bilimga egaliklari, yoshlarning o'qish-o'rganishga ishtiyoqmandligi bilan uzviy bo'liq hodisadir.

Mustaqil mamlakatimizning erkin fuqarolari tilimiz va tariximizning inson hayotidagi ahamiyatini, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni har qachongidan aniqroq, to'liqroq his qila boshlashdi, maktab hayotida tub o'zgarishlar yuz berdi, o'qituvchilar faoliyati sifat jihatdan yangilanish bosqichini o'z boshidan kechirmokda, o'zbek bolasining aql- zakovatini jahon afkor ommasi tan oladigan bo'ldi. Yoshlarimiz jahon olimpiadalarida qatnashib, faxrli o'rinlarni egallay boshladi.

Zamonaviy ta'limni tashkil etish nazariyasi va amaliyotida ham qator sifat o'zgarishlari sodir bo'ldi: ta'limning samaradorligini oshirish va sifatini yaxshilashga oid keng qamrovli didaktik va metodik tadqiqotlar o'tkazilmoqda; ta'lim jarayonining davriyligi ilmiy- didaktik jihatdan asoslanib, o'qituvchilar faoliyatida munosib o'rin ola boshladi;

ta'lim jarayonini tashkil etish, boshqarish, nazorat qilishning interfaol usullaridan foydalanish odat tusini oldi;

ta'lim natijalarini sinashda reyting usuliga, bilim, malakalarni testlashtirishga yanada ko'proq rioya qilinadigan bo'ldi.

Mamlakatimizning iktisodiy taraqqiyotida, jamiyat a'zolarining fikrlashida, tarbiyalovchilarning pedagogik faoliyatida, yoshlarning fan- texnika, kasbga chanqoqligida paydo bo'lgan tub o'zgarishlar o'zlashtirish muammosini atroflicha asoslash, har tomonlama tadqiq qilish ehtiyojini yanada oshganligidan dalolat beradi. Bolalarning o'zlashtirishlarini ta'minlash uchun ularga didaktik ta'sir tadbirlarini ishlab chiqishga ehtiyoj tuziladi. Didaktik ta'sir tadbirlari bolalarning davlat ta'lim standartlari darajasida o'zlashtirishlarini ta'minlash, ularni o'zlari erishgan yutuqlardan tez-tez xabardor etish, o'qituvchi va o'quvchilarning ortiqcha charchashlarining oldini olish, vaqtdan samarali foydalanish talablariga ko'ra ishlab chiqiladi. Buni bir qator olimlar izlanishlarida ko'rish mumkin. Jumladan, Ya.A.Komenskiy' o'zining didaktik qarashlarida ta'lim jarayonini ham tarkiban, ham ta'lim jarayoni sub'ektlari jihatidan tahlil qilgan. Pedagogik tizim, uning uqtirishicha, uch tarkibiy qismdan iborat:

o'huv material — bilimlarning o'qituvchidan o'quvchilarga harakati;

o'tsuvchi — bilimlarni idrok etguvchi va o'zlashtiruvchi;

o'tsituvchi — bilimlarni bolalarga etkazuvchi.

Bilimlarni bolalarning puxta o'zlashtirishi uchun Ya.A.Komenskiy ilk bor didaktik ta'sir tadbirlari tizimini ham aniqlagan edi:

sinfda o'rganilgan mavzular bo'yicha etarli mashq o'tkazish;

yangi o'quv materialini oldin o'rganilgan mavzularga aloqadorlikda o'rgatish; o'rganilgan mavzularni vaqti-vaqti bilan takrorlab turish;

oldin o'rganilgan materiallarni takrorlab, yangi mavzuni tushuntirishga o'tish.

Yu.K.Babanskiyning yozishicha, zamonaviy o'qituvchi faoliyatida bolalarning o'zlashtirishiga to'sqinlik qiladigan qator zaif tomonlar bor: ta'lim jarayonining dolzarb muammolarini ko'ngildagidek hal qila olmaslik, bolalarni o'quv predmetlariga qiziqтира bilmaslik, rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi ta'lim tamoyillarini kompleks amalga oshira olmaslik, o'quvchilarda o'quv mehnati usullarini shakllantirmaslik o'qitish mehnatiniig zaif tomonlari hisoblanadi; ta'limni tashkil etishda ham o'qituvchilar faoliyatining qator zaif tomonlari mavjud. Bunday

kamchiliklar qatoriga to'liq o'zlashtirmaslik sabablarini ajrata olmaslik, bolalarga shaxe va individual jihatdan yondasha bilmaslik, o'quv predmetlararo aloqani tashkil etishdagi qiyinchilik, ta'limni turli usul va vositalar yordamida qiziqarli o'tkazishni to'liq amalga oshirmaslikni ham kiritish mumkin. O'qitish faoliyatidagi mavjud kamchiliklarni) bartaraf etish bolalarning o'zlashtirishlari uchun zamin yaratadi.

Ta'lim jarayonida amal qilinadigan va o'huvchilarning o'zlashtirishiga monelik qiladigan sabablar ham bisyor. Ana shunday sabablar katoriga:

- o'quvchi intellektining etarli darajada rivojlanmaganligi;
- bolalarda fikrlash shakllari — predmetli, obrazli, simvolli fikrlash shakllarining ayrimlari talab darajasida taraqqiy qilmaganligi;
- bilim, ko'nikma, malaka, ijodiy faoliyat tajribasi va tabiat, jamiyat, ong hodisalariga munosabatning etarli taraqqiy etmaganligi;
- bolada o'quv mehnati usullari va malakalarning past rivojlanganligi;
- jismoniy taraqqiyotdagi ayrim deffektlar (ko'zi ojizlik, quloqning past eshitishi, duduqlik, ayrim tovushlarni talaffuz eta olmaslik);
- o'qish, mehnat va turmushga bo'lgan ayrim salbiy qarashlar;
- bola tarbiyasidagi ayrim nuqsonlar (o'zi va o'zgalarga turlicha qarash, o'z tili, tarixi, Vatan qadriga etmaslik, o'ziga ortiqcha baho berish, o'z sha'nini bilmaslik, o'zgalarni mensimaslik va hokazo)ni kiritish mumkin.

O'zlashtirish nazariyasi namoyondalari (B.Blum, J.Kerrol, J.Blok, L.Anderson va boshqalar) o'rganiladigan mavzuga oid bilimlarni o'quv elementlariga ajratish, har bir o'kuv elementiga mos ta'lim maqsadlarini belgilash, o'rganiladigan murakkab hodisalarni belgilash, o'rganiladigan murakkab hodisalarni imkon qadar osonlashtirish, axborotlarning bolalar faoliyatida optimal takrorlashni ta'minlash, ta'limning borishiga o'zgartish, tuzatish, qo'shimchalar kiritish, bolalarni o'zlari erishgan natijadan tez-tez xabardor qilib turish kabi qator texnologik talablarga rioya qilib, ta'lim jarayonini tashkil etish, boshqarish, nazorat qilish amaliyotini nazariy jihatdan asoslashdi.

Hozirgi paytda J.Kerrol, B.Blum izlanishlarida tavsiflangan o`zlashtirish muammosi Buyuk Britaniya, Braziliya, Belgiya, Indoneziya, Avstraliya, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarning maktablarida keng qo`llanilmoqda.

Ta'lim jarayonini loyihalash jihatidan qaraganda o`zlashtirish muammosi:

—dars o`tiladigan sinf o`quvchilarining o`zlashtirish layoqatlari,

bilim darajalarini aniqlash;

— ta'limni boshqarish o`lchovlari (u yoki bu mavzuga ajratilgan o`quv soatlari), ta'limni tashkil etish tempini qayd etish;

— o`quv materiali tarkibini tahlil qilib, o`quv elementlarini

ajratish, har bir o`quv elementini to`liq o`zlashtirish uchun sarf qilinadigan vaqt, testlar to`plamini belgilash;

—bolalarni (o`qish-o`rganishda) ra?batlantirish vositalarini tanlash;

—yo`l-yo`lakay ta'limga kiritiladigan o`zgartish, qo`shimcha, tuzatishlarni qayd etish;

—ta'lim jarayoni loyihasini (dars konspekti yoki ta'lim etaloni) tayyorlash tadbirlari tizimini qamrab oladi.

Ta'lim jarayonini bevosita tashkil etish, boshqarish va nazorat qilish jarayonlari ta'lim mazmunini o`zlashtirishning bola uchun shaxsiy qimmatini oshirish, o`zlashtirishni individuallashtirish, differentsial tashkil etishga qaratiladi. Ta'limni bevosita amalga oshirish jarayonidagi tadbirlar tizimi:

—bolalarni o`z maqsadlarini mustaqil tanlashga odatlantirish (ta'lim maqsadi va ta'lim natijalari o`zaro taqqoslab o`rgatiladi);

—sinf jamoasiga to`liq o`zlashtirish metodikasi bo`yicha bajariladigan o`quv yumushlari va ularni bajarish tartibini o`rgatish;

—o`quv predmetiga oid o`quv elementlarini bolalar bilan birgalikda tahlil qilish;

—bolalarni ta'limda faol ishtirok etishga odatlantirish (mavzular to`liq o`zlashtirilgach, yakuniy baho qo`yiladi, erishilgan natija belgilangan o`lchovlarga taqqoslanib aniqlanadi; sinfda a'lo baholarga o`qiydigan o`quvchilar miqdori o`rta yoki yaxshi baholarga o`qiydigan o`quvchilarga nisbatan ko`p bo`lishi zarur,

bolalarga o'zlari istaguncha maslahat va yordam beriladi, oldingi mavzuni jamoa a'zolari to'liq o'zlashtirgach, navbatdagi o'quv materialini o'rganishga o'tiladi);

— joriy nazoratda yakunlovchi baho qo'yilmaydi (joriy va oraliq nazorat bolalarni ogohlantirish, ularning to'liq o'zlashtirishda qaerga kelib qolganliklarini tushuntirish vazifasini bajaradi);

— asosiy o'kuv muammolariga alternativ muammolar tayyorlash (agar bolalar asosiy muammoni bajarishda qiynalishsa, uni osonroq muammo bilan almashtirish oldindan belgilab qo'yiladi) kabi o'quv yumushlarini qamrab oladi.

Bolalarning o'zlashtirishiga ijobiy yoki salbiy ta'sir qiladigan omillar nihoyatda ko'p: sezgi organlari faoliyatidagi turli defektlar — ko'rish, eshitish o'quvlarining normal taraqqiyoti bolalarning o'zlashtirishiga ijobiy ta'sir qilsa, ularning anormal taraqqiyoti o'zlashtirishga salbiy ta'sir qiladi. Shuningdek, oliy nerv tizimidagi nuqsonlar — qo'zg'alish va tormozlanish hodisalari o'rtasidagi mutanosiblik yoki nomutanosiblik ham o'zlashtirishga ijobiy yoki aks ta'sir qiladi. O'quvchining so'zliq, tish, quloq, bosh o'riqlari, shamollash, temperatura kabi hodisalar ham to'liq o'zlashtirishga mo'nellik qiladi. Ana shu sabablarga ko'ra biologik xususiyatlarga oid hodisalar o'rtasida korrelyatsiya eng yuqori bo'ladi. Sihat-salomatlik o'zlashtirishga ijobiy, uning teskarisi — kasallik esa o'zlashtirishga salbiy ta'sir qiladi.

Shaxsning biologik xususiyatlarini hisobga olib, biologik omillarni bitta umumlashgan korrelyativ — "ishchanlik" atamasi bilan qayd etamiz. O'quvchining ishchanligi eng yuqori o'zlashtirish asosi ekanligi fanda ham, pedagogik amaliyotda ham allaqachon o'z isbotini topgan. "Ishchanlik"ning antipodi — erinchoqlik, dangasalik bolalarning o'zlashtirishda orqada qolib ketishida etakchi sababiga aylanishi ham mumkin. "Ishchanlik" korrelyativi bolaning sihat-salomatligi, ko'rish, eshitish, kinestezik sezgilarining normal taraqqiyoti oliy nerv tizimining talab darajasida shakllanganligini qayd etish uchun ishlatiladi.

O'zlashtirishning psixik omillari ham ancha topiladi: xotiraning zaifligi, tafakkur taraqqiyotidagi kamchiliklar, ortiqcha his-hayajonga berilish, uyatchanlik, ta'sirchanlik kabi omillar ma'lum darajada to'liq o'zlashtirishga mone'lik qiladi. Xotiraning zaifligini bartaraf etish uchun mustahkamlovchi mashqlar o'tkaziladi.

Bolalar tafakkuridagi kamchiliklarni yo`qotish uchun ularga aqliy faoliyat usullari tahlil, qayta birlashtirish, taqqoslash, guruhlarga ajratish, umumiy xulosalar chiqarish yo`llari o`rgatiladi.

O`zlashtirishda o`quvchining intellektual taraqqiyoti etakchi omil sanaladi. O`quvchilarning intellektual taraqqiyotini ko`zlab, ikkita daxldor bo`lanishga ajratamiz: fikrlash jarayonlari — tahlil, qayta jamlash, taqqoslash, guruhlarga ajratish, umumlashtirish jarayonlari mohiyatini o`rganish. Fikrlash jarayonlari mohiyatini o`rganish bolalarni to`liq o`zlashtirishga etaklovchi asosiy omillardan hisoblanadi. Fikrlash jarayonlari xususida o`rganilgan bilimlar o`quvchilarda har bir o`kuv materialida uning asosiy va ikkilamchi belgilarni ajratish layoqatlarini o`stiradi. O`quv materialining asosiy va ikkilamchi belgilarni ajrata oladigan o`quvchi uni, ya'ni o`rganilgan o`quv materialini juda ko`p mavzular orasida taniy oladi. Zero, o`rganilayotgan ob'ektning asosiy va ikkilamchi belgilarini ajrata bilish rivojlangan fikrlashning taraqqiyotini ham ko`rsatadi; bolalarda fikrlash sifatlarini tarbiyalash — berilgan o`quv holatida o`z maqsadini mustaqil belgilash, tanqidiy fikrlash, faktlarga mos atama tanlash, o`z fikrlarini qisqartirib yoki kengaytirib aytish, munosabat bildirish, fikrlash tezligi — zukkolik kabilar fikrlash jarayonining sifatlari sanaladi.

Xulosa qilib aytganda, o`zlashtirmaslik sabablari sifatida o`quvchi intellektining etarli rivojlanmaganligi, fikrlash shakllarining kam taraqqiy etganligi, o`quv predmetlariga qiziqmaslik, o`quv mehnati usullarining taraqqiyotida kamchiliklar, bolalarning jismoniy taraqqiyotidagi ayrim etishmovchiliklar, o`qish, mehnatga salbiy munosabatda bo`lish kabilar ajratilgan edi. Bolalarda o`qish-o`rganishga oid ijobiy munosabatni tarbiyalash, bolalarning jismoniy taraqqiyotidagi kamchiliklarni bartaraf etish, ularda aqliy faoliyat usullarini, shuningdek, aqliy mehnat usullarini shakllantirish o`quv predmetlariga ra`batlantirish, bola intellektini taraqqiy ettirish yo`llari bilan aksariyat o`kuvchilarning to`liq o`zlashtirishlariga erishish mumkin. Binobarin, o`zlashtirish didaktik hodisa sifatida bolalarda o`qish-o`rganishga ijobiy munosabatni tarbiyalashga, bolalarning jismoniy taraqqiyotida kamchiliklarni bartaraf etishga, o`quvchilarda aqliy faoliyat va aqliy mehnat usullarini rivojlantirishga, bola intellektini taraqqiy ettirishga, ularni o`qish-o`rganish mehnatiga ra`batlantirishga bo`liq

## **I.2 O'zlashtirmovchilikni vujudga keltiruvchi omillar haqida.**

Boshlang'ich sinf o'quvchilar shaxsining shakllanishi o'quv faoliyati kichik maktab yoshidagi o'quvchi uchun nafaqat bilish jarayonlarining yuqori darajada rivojlanishi, balki shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish uchun ham imkoniyat yaratadi. Yetakchi bo'lgan o'quv faoliyatidan tashqari boshqa faoliyatlar o'yin, muloqot va mehnat faoliyati ham o'quvchi shaxsi rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu faoliyatlar asosida muvaffaqiyatga erishish motivlari bilan bogliq bo'lgan shaxsiy xususiyatlar tarkib topa boshlaydi. O'quv faoliyati kichik maktab yoshidagi bolalarda o'qishda ma'lum yutuqlarga erishish ehtiyojini qondirishga, shuningdek, tengdoshlari orasida o'z o'rniga ega bo'lishiga imkoniyat ham yaratadi. Aynan ana shu o'rin yoki mavqega erishish uchun ham bola yaxshi o'qish uchun harakat qilishi mumkin. Bu yoshdagi bolalar doimiy ravishda o'zlari erishgan muvaffaqiyatini boshqa tengdoshlari muvaffaqiyati bilan solishtiradilar. Ular uchun doimo birinchi bo'lish nihoyatda muhim. Kichik maktab davrida bolalardagi musobaqaga kirishish motivi tabiiy psixologik ehtiyoj hisoblanib, bu motiv ularga kuchli emotsional zo'riqishni beradi. Bu xususiyatlar aslida bog'cha davridan boshlab yuzaga kela boshlaydi va kichik maktab davrida, shuningdek o'smirlik davrida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalar kattalarning u haqidagi fikr va bergan baholariga qarab, o'zlariga o'zlari baho beradilar. O'quvchining o'ziga-o'zi beradigan bahosi, asosan, to'g'ridan-to'g'ri o'qituvchining beradigan bahosiga va turli faoliyatlaridagi muvaffaqiyatlariga bog'liq. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'z-o'ziga beradigan baholari turlicha - yuqori, adekvat - mos yoki past bo'lishi mumkin. Bu yoshdagi bolalarda mavjud bo'lgan ishonuvchanlik, ochiqlik, tashqi ta'sirlarga beriluvchanlik, itoatkorlik kabi xususiyatlari ularni shaxs sifatida tarbiyalash uchun yaxshi imkoniyat yaratadi. Kichik maktab yoshi davrini bolaning turli faoliyatlarda muvaffaqiyatga erishishini belgilab beruvchi asosiy, shaxsiy xususiyatlarni yuzaga kelish va mustahkamlash davri deb hisoblash mumkin. Bu davrda muvaffaqiyatga erishish motivlari tarkib topishi bilan bir qatorda, mehnatsevarlik va mustaqillik kabi sifatlar rivojlanadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda mehnatsevarlik,

asosan, o'qish va mehnat faoliyatida rivojlanadi va mustahkamlanadi. Mehnatsevarlik bolada o'zi qilayotgan mehnati unga zavq bergan taqdirdagina yuzaga keladi. Bolada mustaqillik xususiyatining shakllanishi asosan kattalarga bog'liq. Agar bola haddan ziyod ishonuvchan, itoatkor, ochiq xususiyatli bo'lsa, unda asta-sekinlik bilan bo'ysunuvchanlik, tobelik xususiyati mustahkamlana boradi. Biroq bolani vaqtli mustaqillikka undash, unda ba'zi salbiy xislatlarning shakllanishiga ham olib kelishi mumkin, chunki hayotiy tajribalari, asosan, kimlargadir taqlid qilgan holda o'zlashtiradi. Mustaqillikni shakllantirish uchun bolaga mustaqil bajaradigan ishlarni ko'proq topshirish va unga ishonch bildirish nihoyatda muhimdir. Shuningdek, shunday bir ijtimoiy psixologik muhit yaratish kerakki, unda bolaga biror bir mas'ul vazifani mustaqil bajarishni topshirish, bu ishni bajarish jarayonida bola o'zini tengdoshlari, kattalar va boshqa odamlarning lideri deb his qilsin. Ana shu his bolada mustaqil bo'lishga undovchi motivlarni yuzaga keltiradi.

## **BAHO O'QUVCHI O'ZLASHTIRISHIGA TA'SIR QILADIMI?**

Aylana yoki uchburchak... u bolani xafa qilmaydi

Ilmira Hasanova, Sergeli tumanidagi 104- maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi:

—Birinci sinf o'quvchisining har qanday intilishini qadrlash lozim. Dabdurustdan yomon bahosi bilan maktabga endigina qadam qo'ygan bolaning orzularini bir zumda yo'qqa chiqarishga hech bir o'qituvchining haqqi yo'q. Shuning uchun har bir bolaga individual yondashib, o'qish istagidagi barcha harakatlarini rag'batlantirish zarur. Bu borada joriy qilingan ball sistemasida baholash eng oqilona yo'ldir. Biroq birinci sinf o'quvchisiga «1» baho emas, ball deb tushuntirsangiz-da, u baribir baho deb tushunadi. Shuning uchun har gal birinci sinfni qabul qilganimda ularni maktab ta'limiga moslashgunlaricha baholamayman. Balki rag'batlantiraman. Ya'ni, gul — «5», gulning yaprog'i — «4», shunchaki aylana — «3», uchburchak — «2»ni anglatadi. Rangli uchburchakni qo'lga kiritgan o'quvchimga bu uchburchak «ikki»ni anglatadi deb hech qachon izoh bermayman. Har bir predmet ball hisoblanishini, faqat ular yaxshi yoki sustroq javob berilganiga qarab turlicha

bo'lishini tushuntirganman. Shuning uchun turli rangdagi aylana yoki uchburchak olgan bolalarim ham xafa bo'lishmaydi. Uning o'rniga «gul»ni qo'lga kiritish istagida yaxshiroq harakat qiladi. 1- sinfdan bolani ana shunday rag'bat usuliga o'rgatib, ikkinchi sinf boshidan raqamli baholashga ko'niktirish, ularning o'qishga bo'lgan ilk qiziqish va ishtiyoqini so'ndirmaslik uchun xizmat qiladi.

Bu tajribaning kichik o'quvchi uchun yoqimli va ruhini cho'ktirmaydigan tomonlari borligiga ota-onalar fikrlari bilan tanishganimda amin bo'ldim.

— O'g'lim birinchi sinfni muvaffaqiyatli boshladi. Harflar tugab, vazifalar ko'paygani sayin u «ikki», «uch» ball olib keladigan bo'ldi. Natijada uyga berilgan topshiriqlarni ham bajarishga hafsala qilmay qo'ydi. Bir kuni «dardi»ni aytdi: — She'rni yaxshi aytib bersam ham baribir ustoz menga «uch» qo'yadi. Yodlamasam, «ikki» qo'yadi. Farqi nima?

Shundan keyin farzandimning oladigan bahosi bilan bog'liq ruhiy holatlariga qat'iy e'tibor qaratdim. Vaziyat taqozosi bilan Ilmira Hasanova ishlaydigan maktab joylashgan tumanga ko'chib keldik va o'g'lim o'qishni shu sinfdan davom ettirdi. Boshida sinf jamoasiga ko'nikishga qiynalgan bo'lsa-da, o'g'lim deyarli «gul» yoki «yaproq» olib keladi. Savollarga beradigan javoblarida qat'iylik, o'ziga ishonch tug'ildi bolamda. Hozir vazifalarni ham mustaqil bajaradi, maktabga avvalgidek erinib yoki xohlamasdan emas, aksincha, orziqib ketadi. Farzandimning o'quvchilik taqdirida yuz bergan bunday o'zgarish keyinchalik ham menga saboq bo'ladi, — deydi Muxtasar Jo'rayeva.

Baho o'qishga undashi kerak

Yunusobod tumanidagi 302- umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi Sanoat Nurmatova esa boshqacharoq tajribasi bilan o'rtoqlashdi.

— Darsga tayyorlanmagan bolani yaxshiroq harakat qildirish, mas'uliyatni chuqurroq his qilishi uchun ham har doim a'lo baho qo'yib bo'lmaydi. Har bir o'quvchini mehnatiga yarasha baholash kerak. Har qanday vaziyatda ham bola rag'batlantirib turilsa, tushkunlikka tushmaydi. Uning o'rniga xatolarini takrorlamaslikka tirishadi. Buning uchun quyidagi usuldan foydalanaman: hafta mobaynida «to'rt» olmagan o'quvchiga yulduzcha sovg'a qilaman. Agar bir-ikkita

«to'rt» olsa-da, bolaning intilishlari namunali bo'lsa, uni ham yulduzcha bilan siylayman. Bir oy oxirida 4ta yulduzcha, ya'ni har haftada yulduzcha olgan bolaga kitob sovg'a qilaman. Buni ko'rgan sinfimdagi yaxshi yoki o'rta o'qiydigan o'quvchilar ham qiziqadi, havas qiladi va o'zlari ham qatorasiga rag'batlarni qo'lga kiritishga harakat qiladi. Chunki o'quvchi uchun o'qituvchining e'tibori hamma narsadan ustun turadi.

— O'quvchilarim hozirda 4- sinfda o'qiyapti. Baho bolaga u yoki bu tarzda ta'sir ko'rsatadi. Menimcha, har bir baho o'qituvchi tomonidan izohlanishi kerak. «Mana bugun juda yaxshi o'qiding, so'zlarni ham burro- burro talaffuz qilding, shuning uchun «besh» bilan baholanasan», deyilganda o'quvchi o'ziga nisbatan alohida e'tiborni his qiladi. Xuddi shunday har bir «ikki» izohlanishi kerak. Masalan, diktantdan «2» olgan bolaga nisbatan «Sunnatilla, sen mana bu so'zlar imlosini yaxshi bilar eding. Lekin darsda diqqatingni bir joyga jamlamaganing uchunmi, nimagadir xatolikka yo'l qo'yibsan. Kel, yana bir bor o'tgan mavzulardagi grammatik qoidalarni yodga olamiz. O'ylaymanki, har bir yo'l qo'yilgan xatoni tuzatasan...» kabi tadbir tutilganda bola nima uchun past baho olganining isbotini ko'radi va qayta shu natijani takrorlamaslikka urinadi. Shuningdek, o'tgan mavzularni mustahkamlashga o'qituvchining e'tibori jalb qilinadi. Yana sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlaridan o'quvchidagi yaxshi rivojlanmagan malakalarni shakllantirish maqsadida foydalanaman. Qayta-qayta mashq qildirish natijasida o'quvchining bilim darajasi oshadi va tabiiyki, baholari ham ko'tariladi», — deb masalaga yondashadi Mirzo Ulug'bek tumanidagi 112- maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi Muhabbat Umarova.

Baho nisbiy narsami?

Biz o'quvchiga baho nisbiy narsa, olingan bilimlar muhim deya tushuntiramiz. Biroq boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun kundalikka qo'yilgan baho haqiqiydek hisoblanadi. Shuning uchunmi sinfdagi «a'lochi» maqomiga ega bolalar ko'p qo'l ko'tarib, ko'p javob berib, ko'p baho olishni istaydi. Bunday vaziyatda olingan bilimlar mukammal bo'larmikan? Baho yuqori bo'lsa-yu, bilim sayoz bo'lsa-chi? Faol bo'lmasa-da, berilgan har bir savolga to'g'ri javob beradigan kamtar bolalarga

tengdoshlarining o'zidan so'zamolligi tufayli o'zib ketishi malol kelmaydimi? Bu kabi muammolar xususida Ilmira Hasanova shunday deydi:

— O'qituvchi har bir darsda imkoni boricha butun sinf jamoasini baholay olishi kerak. Hech bo'lmaganda, bolaning darsga qanday tayyorgarlik ko'rganini nazorat qila olishi darkor. Shundagina har bir o'quvchi berilgan vazifaga jiddiy qaraydi. Yana sinfdagi yetakchi bolalarda o'zlarini ko'rsatish, birinchi bo'lish istagi yuqori bo'lganligi uchun ham ular topshiriqlarni dars jarayonining o'zidayoq bajarib, tezda baholanishni xohlaydilar. Biroq bunda o'zlashtirish sayoz bo'lib qolishi mumkin. Chunki tez qabul qilingan ma'lumotlar inson xotirasidan qisqa muddatda o'chib ketadi. Shuning uchun, boladagi har bir qilingan harakatni hurmat qilgan holda unchalik faol bo'lmagan bolalarni ham bahslarga, savol- javoblarga ko'proq jalb qilish kerak. Ularni ham fikri teran, har qanday vaqtda vazifaga yechim izlaydigan faol o'quvchiga aylantirishda o'qituvchi ter to'kishiga to'g'ri keladi. Shu mehnat ortidan esa, albatta, sinf jamoasining ko'rsatkichlari yuqori bo'lishiga erishiladi.

Bola olayotgan har bir bahoda ota-ona omilining o'rni bo'lishi zarur. Ayniqsa, har bir qo'yilgan «2» dan ota-ona xabar topishi, kerak bo'lsa, o'qituvchi tomonidan aytilishi kerak. Bu o'quvchining yo'l qo'yayotgan kamchiligini to'g'rilashga va ruhining tushib ketmasligiga xizmat qiladi. Ota-onalarning bu o'rinda bolani asossiz ravishda «nimaga ikki olding?» deb koyiyverishidan hech qanday naf yo'q...

Xuddi shu o'rinda bizga psixolog maslahati yordamga keladi:

— Boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun tanqid yoqimsiz narsadir. Xuddi shu kabi «ikki» ham u uchun muvaffaqiyatsizlik, ojizlik belgisidek tuyuladi. Shu bois birinchi sinf o'quvchisiga «2» baho qo'yilmasa maqsadga muvofiq bo'ladi. Yoki har bir past bahoni ham bolaning ko'nglini o'ksitmagan holda, ehtiyotkorlik bilan qo'yish zarur. Sababi birgina baho o'quvchining umumiy bilim olish darajasiga ta'sir qilmay qolmaydi. Yoxud matematikadan misol yechishga qobiliyati zo'r bolani she'rni ifodali o'qib bera olmaslikda ayblab, u fandani «5», bu fandani «2» qo'yilsa, o'quvchida fanlarni ajratish hissi paydo bo'ladi. Bora-bora shu bola «adabiyotdan mening iqtidorim yo'q», deb o'ziga- o'zi xulosa chiqarishi mumkin. Bu esa

gullamoqchi bo'lgan gulni uzib olish bilan barobardir, — deydi Shayxontohur tumanidagi 167- maktab psixolog Sevara Anorboyeva.

Turli qarashlar, yondashuvlardan ko'rinadiki, qo'yilayotgan har bir ijobiy va salbiy bahoning o'quvchiga, uning o'zlashtirishiga ta'siri, albatta, bo'ladi. Shunday ekan, muhtaram o'qituvchilarimiz bilim olishga qiziqish aynan boshlang'ich sinfdan boshlanishini nazardan qochirmagan holda har bir bolani munosib taqdirlasalar, shu bolalar kelajakda ham olgan mukammal bilimlari tufayli munosib mavqelarga sazovor bo'ladilar, deb umid qilamiz.

Inson borliqning bir bo'lagi sifatida undagi har bir voqelikka o'ziga xos mulohaza bilan yondashsa, ko'rgan, eshitgan voqealarini ziyraklik bilan mulohaza qilsa, o'qish qobiliyatiga ega bo'lsa, ijodiy fikrlasa, uning tafakkuri qarashlarida yangilik, samara bo'lishi muqarrar. Bunday jarayonda mustaqil ta'limdan foydalanish asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ona tili darslarida va darsdan tashqari mashg'ulotlarda mustaqil ta'limdan foydalanish o'quvchilarda bilim, ko'nikma, malakalarni shakllanishida juda katta ahamiyatga egadir. O'quvchilarning mustaqil fikr yuritishi, aqliy va ijodiy faollikka undash, erkin fikr, kasbiy mas'uliyat elementlarini his qilishga qaratilgan jarayondir.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarini mustaqil ta'lim asosida o'qitish ta'lim tizimining asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Mustaqil bilim egallashda amal qilinadigan qonun-qoidalarga aniqlik kiritish lozim bo'ladi. Umumdidaktik prinsiplar qatorida mustaqil ta'lim tamoyillari quyidagicha ishlab chiqildi. Ular:

- ta'limning insonparvarlik va demokratik ruhda amalga oshirilishi;
- bilim oluvchi shaxsiga yo'naltirilganligi;
- bilimlarni o'zlashtirishda individual va jamoaviy yondashuv;
- o'quv materialini modullar asosida o'zlashtirish;
- o'quvchilarning mustaqil ijodiy fikrlashi, og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish;
- o'quvchilar nutqining ifodaliligini oshirib borish;
- oddiydan murakkablik darajasiga borish;

- mustaqil ishlash ko'nikma va malakalarini bosqichma-bosqich shakllantirish kabilarni o'z ichiga oladi.

Mazkur tamoyillar asosida o'quvchilarning mustaqil bilim olishlari har bir o'quvchi tomonidan

o'zlashtirilgan bilimlarni to'g'ri va foydali amalga oshirilishiga ta'sir ko'rsatadi.

Mustaqil ta'lim o'quvchilarning ona tilini o'qitish sohasidagi bilimlarini oshirishga, ularni mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga darsda va darsdan tashqari mustaqil ishlarni bajarish uchun vazifalar beriladi. Bu esa o'z navbatida ona tilini o'qitish tizimida o'quv-tarbiya jarayonining muhim shakli sifatida katta ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tili bo'yicha bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish, hayotga ongli munosabatni shakllantirish, ta'limning tarbiyaviy tamoyilini kuchaytirish, qiziqishini oshirish, mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatish aynan mustaqil ta'lim asosida amalga oshiriladi. Bunday ishlar o'z shakli va mazmuniga ko'ra xilma-xil bo'lib, bevosita asosiy darslarning davomi hisoblanadi. Shu bilan birga mustaqil ta'limda amalga oshirish qiyin bo'lgan vazifalarni hal qilishga keng yo'l ochiladi. Ona tili darslarida mustaqil ta'limning turli xil usullaridan, ya'ni ta'lim texnologiyalaridan foydalanish mumkin.

O'quvchilarda mustaqil ishlash, avvalo, unga tayyorlash o'qituvchi tomonidan materiallarni muammoli tarzda bayon etilishi kabi yo'llar bilan hosil qilinadi. Bunda quyidagi topshiriqlarni muntazam ravishda tavsiya etish mumkin: materialni darslik asosida o'rganish, namunaviy mustaqil mashqlar, yangi turdagi topshiriqlar, o'zlashtirilgan usullarni amalda qo'llashga oid vazifalarni bajarish, ijodiy ishlarni o'rgatishni o'z ichiga oladi.

O'quvchilar bilan o'qituvchi o'rtasida yo'l qo'yilishi lozim bo'lgan amaliy mashq usullaridan biri bu yozma bahs usulidir. Bunday usulda muloqot o'rnatish natijasida o'quvchilarning erkin tarzda mustaqil fikrini ifodalash imkoniyati kengayadi, yozma nutqi rivojlanadi. Og'zaki muloqot jarayonida bayon qila olmagan fikrlarni bema'lol yozma shaklda bildirish uchun sharoit yaratiladi.

Bugungi kunda maktab o'quvchilarining yozma nutqini qoniqarli ahvolda deya olmaymiz. Ular o'z fikrlarini hamma vaqt ham mantiqiy izchillikda bayon qila olmaydilar. Ayni bir vaqtning o'zida bu usulni o'quvchilar bilan o'qituvchi hamda bir guruhdagi o'quvchi bilan o'quvchi orasida qo'llash mumkin. Bu bosqichda o'quvchilar o'z fikrlarini yozma tarzda bayon qila olishlari lozim. Matnda ulardan o'zlarining shaxsiy nuqtai nazarlarini aniq ifodalashlari talab etiladi. Matn orqali boshqalaming fikrlari, nuqtai nazarlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishlari kerak.

O'quvchining o'quv faoliyatini individuallashtirish imkoniyati sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

a) matn ustida ishlay olishi; b) o'z fikrini mantiqiy izchillikda bayon eta bilishi; v) kattalarning nuqtai nazarlariga asoslanib turib ishlay olish ko'nikmasi va hokazo.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, o'quvchilarda faqatgina ona tili darsliklari bilan cheklanib qolmasdan hamkorlikda o'qitish texnologiyasidan ham fbydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ona tili fanini chuqur o'zlashtirishda hamkorlikda o'qitish usullari bizga yaqindan yordam beradi.

Ona tili darsini boshlashdan oldin o'quvchilarni bir necha guruhga ajratib, mavzu bo'yicha tuzilgan o'quv topshiriqlari asosida ularning mustaqil va ijodiy ishlarini tashkil qilish mumkin. Har bir topshiriq bo'yicha savol-javob o'tkazilib, o'quvchilarning javoblari tegishli ballar bilan baholab boriladi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasining guruhlarda o'qitish usulidan foydalanib, o'tiladigan darsning borishini quyidagicha loyihalash tavsiya etiladi:

1.Tashkiliy qism.

2.O'tgan mavzu yuzasidan o'quvchilar bilimni nazorat qilish va baholash.

3.O'quvchilarni dars mavzusi, maqsadi, borishi bilan tanishtirish.

4.Yangi mavzuni o'rganish.

a)o'quvchilarni guruhlarga ajratib, guruh a'zolari tomonidan bddgilangan o'quv topshiriqlarini mustaqil ravishda sifatli bajarilishiga erishish;

b) o'quv materialini yaxlit holda qayta ishlab chiqilishini amalga oshirish.

5. Yangi mavzu yuzasidan guruhlar o'rtasida savol-javob, o'quv bahsi o'tkazish.

6. Mavzu matnida berilgan o'quv mashg'ulotini uyushtirish.

7. Test savollari yordamida o'quvchilar bilimini nazorat qilish va baholash.

8. Yangi mavzuni qayta ishlash va yakunlash.

9. Uyga vazifa berish.

Guruhlar o'rtasidagi o'quv bahsi,  
munozara o'quvchilar jamoasining hamkorlikda bajargan mustaqil faoliyatining  
natijasi, yakuni sanaladi.

Masalan: Mavzu: Nutq, gap va so'z.

Darsning maqsadi: a) bilimlarni mustahkamlash, o'quvchilar faolligini oshirish,  
mantiqiy fikrlashlarini rivojlantirish; b) hamjihatlikda ishlashga o'rgatish.

Darsning metodi: interfaol.

Darsning jihozi: tarqatma materiallar.

Darsning borishi:

O'quvchilar 6 guruhga bo'linadilar. Har qaysi guruhda 5-6 tadan o'quvchi  
bo'ladi. Ular quyidagi qoidalarga rioya qiladilar:

- intizomli bo'lish;
- bir-birlarini hurmat qilish, faollik ko'rsatish, hamkorlikda ishlash;
- do'stining fikrlarini qadrlash;
- vaqtdan unumli foydalanish;

O'quvchilarni guruhlariga bo'lish.

O'quvchilar stoldagi rasmi kartochkalardan xohlaganlarini tanlab oladilar va  
o'zlarining qaysi guruhga mansubliklarini rasmlar orqali (ovoqsiz) topib oladilar.

1-guruh: mevalar - olma, nok, uzum, olcha.

2-guruh: sabzavotlar - sabzi, karam, kartoshka, piyoz.

3-guruh: don ekinlari - mosh, gurnch, no'xot, loviya, makkajo'xori.

4-guruh: daraxtlar - terak, tol, chinor, archa, majnuntol.

5-guruh: poliz ekinlari: - qovun, tarvuz, handalak, qovoq, bodring.

6-guruh: dorivor o'simliklar - yalpiz, ismaloq, otquloq, isiriq, beda.

O'quvchilar guruhlarini topib, belgilangan joyga doira shaklida o'tiradilar.

*Darsning birinchi topshiriq'i e'lon qilinadi.*

1-topshiriq. Kartochkalardagi so'zlarni ma'no jihatdan bir-biriga bog'lab, she'r hosil qilish. Bunda davlatimiz madhiyasi uchun yaratilgan she'rdan foydalanish mumkin. Madhiyaning birinchi to'rtligini naqorati bilan 1-, 2-, 3-guruhlarga, ikkinchi to'rtligini naqorati bilan 4-, 5-, 6- guruhlarga tarqoq holda kartochkalarda beriladi. Guruhlar topshiriqni bajarib bo'lgach, chapak chalib, ishni tugatganlarini bildiradilar.

Shundan so'ng quyidagi savollar orqali o'quvchilarga murojaat qilinadi:

- Topshiriq berilganda o'zingizni qanday his qildingiz?
- Topshiriqni bajarayotganingizda qanday qiyinchiliklarga duch keldingiz?
- Bajarib bo'lganingizdan so'ng o'zingizni qanday his qildingiz?
- Ish taqsimotini qanday yo'lga qo'ydingiz?
- Madhiya matnini nimalar orqali hosil qildingiz?

2-topshiriq. Berilgan so'zlar ishtirokida matn tuzish. Guruhlarga aralash so'zlar yozilgan konvertlar tarqatiladi. Bu so'zlar bilan qiziqarli hikoya tuziladi.

- 1-guruhga: fil, sichqon, mazali non, qush, qochdi.
- 2-guruhga: olma, mallasoch, qayiq, tush, afsus.
- 3-guruhga: taksi, teatr, pul, sahna, xolam, uyalib qoldik.
- 4-guruhga: hayvonot bog'i, muzqaymoq, onam.
- 5-guruhga: kino, qor odam, bolakay, bo'ri.
- 6-guruhga: akam, tufli, koptok, oyna, xoda.

Guruhlar chapak chalish orqali ish yakunlanganligini bildiradilar va navbat bilan tuzgan matnlarini o'qib eshittiradilar. Topshiriqni bajarganlariga qarab guruhlar rag'batlantirib boriladi.

3-topshiriq. Test bilan ishlash. (Hamma guruhga bir xildagi 4 ta test topshiriladi).

1. Nutq nima?
  - a) gap;
  - b) tugallangan fikrning yozma shakli;
  - d) tugallangan fikrning og'zaki shakli.
2. Qaysi qatordagi gapda so'zlar tarkibi to'g'ri berilgan?
  - a) non yopiladi tandirda;

- b) tandirda non yopiladi;
  - d) non - tandirda yopiladi.
3. So'z nimalardan tashkil topadi?
- a) harflardan;
  - b) bo'g'inlardan;
  - d) gaplardan.
4. Qaysi qatordagi so'zlar xatosiz yozilgan?
- a) paroxod, yalpiz;
  - b) paroxot, yalpiz;
  - d) paraxod, yalpiz.

4-topshiriq. Sovg'alar topshirish.

Guruhlar bir-birlarini baholaydilar va esdalik uchun sovg'a beradilar. Har bir guruh qanday ishlagani, ish davomida o'zlarini qanday tutganligi, dars qoidasiga qanday rioya qilganliklari haqida fikrlar bildiradi.

Darsni yakunlash (baholash).

Har bir guruh o'zining eng faol qatnashgan, bilimdon va zukko a'zolarini baholaydi.

Darsni yakunlash, mustahkamlash:

1. Guruhingiz a'zolaridan mamnunmisiz?
2. Topshiriq bajarayotganda qanday xatoliklarga yo'l qo'yganingizni bilasizmi?
3. Bugungi darsdan nimalar oldingiz?
4. Qanday tushuncha hosil qildingiz?
5. Bugungi interfaol usuldagi darsni qanday baholaysiz? (a'lo, qoniqarli).

Xulosa shuki, boshlang'ich sinfda ona tili darslarida va darsdan tashqari mashg'ulotlarda mustaqil ta'limdan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishda asosiy omildir.

6- 11 yoshli bolalar o'zlarning individual xususiyatlarini anglay boshlaydilar. Bolaning o'z-o'zini anglashi ham jadal rivojlana boradi va musgahkamlana boshlaydi. Bu davrda bolalar o'zlarining ismlariga yanada ko'proq ahamiyat bera boshlaydilar va ularning ismlari tengdoshlari va atrofdagilari tomonidan ijobiy

qabul qilinishiga harakat qiladilar. Bolani o'zining tashqi ko'rinishi va gavda tuzilishiga beradigan bahosi ham o'z-o'zini anglashida ahamiyati juda kata. Kichik maktab davrining oxiriga borib bolalar, ayniqsa, qizlar o'zlarining yuz-tuzilishlariga alohida e'tibor bera boshlaydilar. Kichik maktab yoshidagi o'quvchining o'quv faoliyati jarayonida o'zidagi xulq-atvorni va faoliyatni o'zi tomonidan muvofiqlashtirish qobiliyati rivojlanadi, ongli ravishda bir fikrga kela olish qobiliyati rivojlanadi, o'z faoliyatini o'zi uyushtirishga, hamda bilim olish jarayoniga bo'lgan qiziqishining qaror topishiga yordam beradi. O'quvchi xulq atvorining motivlashtirishi ham o'zgaradi. Bunda do'stlari va jamoaning fikrlari asosiy motivlar bo'lib qoladi. Axloqiy his tuyg'ular va shaxsning irodaviy xususiyatlari shakllanadi.

5-6 yoshlarda ko'zga tashlangan bolalarning xususiyatlari yillar davomida rivojlanadi va mustahkamlanadi, o'smirlik davrining boshlariga kelib. juda ko'pgina ngaxsiy fazilatlar shakllanib bo'ladi. Bolalarning individualliklari ularning bilish jarayonida ham ko'rinadi, Bu davrda bolalarning bilimlari kesh'ayadi va chuqurlashadi, ko'nikma va malakalari takomillashadi. 3-4 sinflarga borib, aksariyat bola.\arda umumiy va maxsus layoqatlar ko'zga tashlanadi. Kichik maktab davrida hayot uchun nihoyatda ahamiyatli bo'lgan muvaffaqiyatga erishish motivi mustahkamlanadi, bu esa o'z- o'zidan boshqa layoqatlarni jadal rivojlanishiga olib keladi.

Bu yoshdagi bolalarda idrok, diqqat, xotira, tafakkur va nutq to'liq shakllanib bo'L1'ani uchun ham ularga ta'lim berishda kattalarga qo'llaniladigan uslublardan foydalanish mumkin, Kichik maktab yoshidash bolalar psixik rivojlanigpiga ularning atrofidagi odamlar, ota-onasi va ayniqsa o'qituvchi bilan bo'ladigan munosabati orqali erishish mumkin 3-4 sinflarga borib bola uchun uning o'rtoqlari bilan munosabatining ham ahamiyati ortadi. Bu munosabatlardan kattalar ta'lim-tarbiya maqsadlarida foydalanishlari mumkin. Bu yoshdagi bolalar soatlab yolg'iz holda sevimli maxshulotlari bilan shug'ullanishlari mumkin va shu asosda ularda mehnatsevarlik va mustaqillik fazilatlar shakllanadi.

Umuman ta'limga, xususan, boshlang'ich ta'limga e'tibor yurtimizda mustaqillikdan so'ng jiddiy ijobiy tomonga o'zgaradi.

Prezidentimiz boshlang'ich sinflarda yituk, eng tajribali murabbiylar ishlashi lozimligini alohida uqtiradi va qator savollarni o'rta tashlagan edi: Zamonaviy boshlang'ich ta'limning o'zi nima? Bola 1-4 sinflarda qanday bilimlarga ega bo'lishi kerak? Bu muoammolar shubhasiz ilmiy –pedagogik tadqiqotlar asosida o'z yechimi topadi. Chunki, boshlang'ich ta'limda ilmiy bilim asoslaridan yetarli ma'lumotlar berilmasa, uning keyingi rivojlanishi davrida buning o'rnini to'ldirib bo'lmaydi. Kichik maktab boshlang'ich ta'lim kamolot bosqichi yoki pedagogik psixologiya fan sohalari nuqtai nazardan shaxs rivojida eng ma'suliyatli va muhim rivojlanishi davrlaridan birini tashkil etadi.

Tafakkur psixologiyasining nuqtai-nazaridan kichik maktab yoshidan boshlab o'quvchilarning aqliy faoliyati turli bilim jarayonlarning sinovlaridan o'ta boshlaydi. Chunki ta'lim aqliy taraqqiyotini kompleks ravishda, ya'ni har tamonlama rivojlanishiga ma'naviy negiz, asos hozirlaydi.

Maqsadga muvofiq o'qish faoliyati kichik maktab yoshdagi o'quvchilarning aql-idrok, sezgirliги kuzatuvchanligi, uquvliligi, esda olib qolish, esga tushurish imkoniyatlarini rivojlantirish uchun muhim shart-sharoitlar yaratadi, bolalarda o'qish yozish, hisoblash malakalarini shakllantiradi.

Bundan tashqari, mazkur ta'lim jarayonida ularning bilimlari qo'llash kengayadi, bilishga qiziqishlari ortadi. Ijodiy izlanish qobiliyati rivojlanadi, ularda tafakkurning faolligi mustaqilligi, mahsuldorligi ortadi, aqliy imkoniyatni ishga solish vujudga keladi.

O'quv fanlariga ijobiy munosabat, qattiq shug'ullanishi niyati, jamoatchilik oldiga ma'suliyati his qilishi, bilim olishning ijtimoiy ahamiyatini anglash tuyg'ulari tarkib topadi.

Endi o'z xohish irodasi bilan zarur ma'lumotlar to'plashga, o'z oldiga aniq maqsad va vazifa qo'yishga harakat qiladi. Bolaning ana shu faolligi xotirasining muayyan darajada rivojlanganligini bildiradi. Oqilona tashkil etilgan

ta'lim jarayoni mazkur yoshdagi bolaning aqliy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Maktab ta'limi o'quvchining turmush tarzini, ijtimoiy mavqieni, sinf jamoasi va oila muhitidagi o'rnini o'zgartiradi.

Uning vazifasi o'qishdan, bilim, olish ko'nikma va malakalarini egallash, o'zlashtirishdan iborat bo'ladi. Kichik maktab yoshdagi bolaning muhim xususiyatlaridan biri, unda o'ziga xos ehtiyojlarning mavjudligidir. Bu ehtiyojlar o'z mohiyatiga ko'ra muayyan bilim ko'nikma va malakalarini egallashga harakat qiladi.

Kichik maktab yoshdagi bola o'zining tub mohiyati va vazifasini tushunib yetmaydi, balki hamma maktabga borishi kerak deb tushunadi. Kattalarning ko'rsatmalariga amal qilib, tirishqoqlik bilan mashg'ulotlarga kirishib ketadi. Oradan ma'lum vaqt o'tgach, shodiyona lahzalarining tassuroti kamayishi bilan maktabning tashqi belgilari o'z ahamiyatining yo'qota boradi va bola o'qishning kundalik aqliy mehnat ekanligini angladi. Shunda bola aqliy mehnat ko'nikmasiga ega bo'lmasa, uning o'qishdan ko'ngli soviydi.

Ta'limning mazmuni o'quvchining bilimlarini egallashga qiziqishi o'z aqliy mehnat natijasidan qanoatlanish hissi bilan uzviy bog'liqdir. Bu his o'qituvchining rag'batlantirish bilan amalga oshiriladi va o'quvchida samaraliroq ishlash moyili istagini shakllantiradi. Bolada paydo bo'lgan faxrlanish o'z kuchiga ishonch hisslari bilimlarni o'zlashtirish va malakalarini rivojlanishiga xizmat qiladi. Kichik maktab yoshidagi bolalarni o'qitish jarayoni, o'quv faoliyatining asosiy kamponetlari: O'quv vaziyatlari, o'quv harakatlari, nazorat etishi va baholash bilan tanishtirishdan boshlanadi. Bu borada barcha predmetli harakatlar aqliy rivojlantirishga qulay bo'lgan sharoitda amalga oshirilishi juda muhim.

Agar bola o'quv xarakatlarini noto'g'ri bajarsa, bu uning o'quv harakatlarini nazorat va baholash bilan bog'liq harakatlarini xususiyatlarini ma'lum darajada shakllantirishdan dalolat beradi. O'quv vaziyatlarida bolalar ayrim turdagi masalalarni yechish yo'llari bilan tanishadilar, ularni egallagan zahoti aniq bir masalalarni yechishda amaliy foydalanadilar.

Ta'lim asosida jamiyat rivojlanishining obektiv ehtiyojlari turadi. Ta'lim insonning mehnat olamiga samaraliroq kirishini, jamiyat hayotiga qo'shilishini ta'minlaydi. Mustaqillikka erishib, erkin bozor munosabatlari asosida demokratik huquqiy davlat sifatida shakllanish yo'liga o'tgan O'zbekistonda hozirgi bosqichda Xalq ta'limi tizimiga, yosh avlodda mustaqillik va faollikni, ishbilarmonlik va tadbirkorlikni shakllantirishga jiddiy e'tibor berilmoqda.

Ta'lim - jarayon bo'lib, u natija va tizimdir. Ta'lim jarayon sifatida bilimlar, ko'nikma va malakalarning ma'lum yig'indisini, faoliyat va munosabatlarning tegishli tajribasini o'zlashtirishga qaratilgan maxsus ishlarning tashkil qilinishidir. Ta'lim natija sifatida bilimlarni, faoliyat va munosabatlar tajribasini o'zlashtirishda erishilgan darajadir. Ta'lim tizim sifatida davlat muassasalari va boshqarish organlarining majmuasi bo'lib, ular doirasida insonni tarbiyalash jarayoni amalga oshiriladi. Shu tariqa, ta'lim doimo bir yo'la tarbiyalash jarayonini ham, o'qitish jarayonini ham ifodalaydi.

Yosh avlod haqida gap borar ekan, shaxsning kamol topishi, o'z mavqeyini anglash va o'zini ko'rsatish masalalari birinchi o'rinda turadi. Bu masalalar butun jamiyat va maxsus yaratilgan ijtimoiy institutlar va insonning o'zi tomonidan tasodifiy ravishda ham, maqsadga muvofiq yo'sinda ham hal qilinishi mumkin. Ta'lim tizimida shaxsning ijtimoiylashuvi, kasbni egallashi va moslashuvi jarayonlarini maqsadga muvofiq tarzda boshqarishga ham da'vat etilgan.

Boshlang'ich maktab har qanday holda ham o'quvchilarda bilimlarni shakllantirishda va ularning qobiliyatlarini aniqlashda asosiy rol o'ynaydi va undan keyin ham shunday bo'lishi kerak. Ammo boshlang'ich maktabdagi barcha o'qituvchilar bolalarning qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish uchun tegishli ishlarni amalga oshirayotirmi?. Masalan, nima uchun yuqori sinflarda a'lo bahoga o'zlashtiradigan bolalar soni kamayib bormoqda?

Maktabni bitta yoki ikkita o'quvchi a'lo baholar bilan bitirishini qanday tushunish kerak? Iste'dodli, qobiliyatli bolalar yo'qmi, yoki o'qitish jarayoni shunchalik samarasiz bo'lib qolganmi?. Bularning sababi nima?. Sababi ko'p. Birinchidan, boshlang'ich sinf o'qituvchisi bolalar bilan individual ish olib borish

imkoniyati cheklangan. Sinflarda bo'sh o'zlashtiradigan o'quvchilarga alohida e'tibor berish zarur. Ikkinchidan, mazkur o'qituvchilarning metodik saviyasi yetarli emas. Sinfdagi umumiy ishlar jarayonida qobiliyatli bolalarning ijodiy imkoniyatlari cheklanib qolmoqda. Ular o'z qobiliyatlarini ko'rsata olmayotir. O'qituvchi kuchi va e'tibori butun sinfga qaratilib, qobiliyatli bolalar ko'zga tashlanmayotir. Umumiy aytganda, xususan, bolalarni saralash va o'qitishga boshqacha yondashish bilan ularning ijodiy qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish kerak».

Ana'anaviy dars o'tish jarayonida ko'proq ma'ruza, savol-javob, amaliy mashq kabi metodlardan foydalaniladi. Shu sababli bu hollarda ana'anaviy dars samaradorligi ancha past bo'lib, o'quvchilar ta'lim jarayoning passiv ishtirokchisiga aylanib qoladilar. Bolalarda betinim jiddiy dars beraverish, ustma-ust nazariy bilimlar, qoidalar bilan qurollantiraverish ularni o'qishdan bezdirib qo'yadi. Kichik maktab yoshidagi bolalarida bunday hol ko'p uchraydi. Buning oldini olish uchun nima qilish kerak?. Ana'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda dars jarayoni oqilona tashkil etilishi, o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rivojlantirib turilishi, o'quv mavzuni kichik-kichik bo'laklarga bo'lib ularning mazmunini ochishda bahs-munozara, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, rolli o'yinlar metodlarini qo'llash, rang-barang qiziqtiruvchi misollar keltirish, o'quvchilarni amaliy mashg'ulotlarni mustaqil bajarishga undash, har xil baholash usullari va ta'lim vositalaridan joyida va o'z vaqtida foydalanish talab etiladi.

Pedagogik texnologiyaning keng miqyosda ta'lim jarayoniga tadbiiq etilayotganligining boisi shundaki, unda o'quv maqsadlariga garovli erishiladi. Texnologik yondashuvning eng avvalo yuzakichilikka emas, balki rejalashtirilgan natijani amalga oshirish imkonini beruvchi samarali yondashuv ekanligini anglagan o'qituvchilar uni o'z faoliyatlariga tadbiiq etmoqdalar. Jumladan, II-darajali «Sog'lom avlod uchun» ordeni nishondori, oliy toifali o'qituvchi H.Rahmatullaeva innavatsion pedagogik texnologiyalarning afzalligi haqida shunday deydi: «O'qitishning innavatsion pedagogik texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tadbiiq etayotganligi boisi o'quvchilarning dars o'zlashtirishi sifati oshib bormoqda. Bolalarda erkin fikrlash,

o'z fikrini mustaqil bayon etib berish, ko'proq bilishga intilish ortmoqda, ular xotirasida o'tilgan mavzular ko'proq saqlanib qolishga erishmoqdaman».

An'anaviy o'quv jarayonida asosiy omil-pedagog (va uning faoliyati) hisoblansa, pedagogik texnologiyada birinchi o'rinda o'qish jarayonidagi o'quvchilar faoliyati qo'yiladi. Bu esa o'quvchining nafaqat ta'lim jarayoni ob'ekti, balki uni ta'lim jarayonining faol sub'ekti sifatida namoyon bo'lishiga imkon beradi.

Prezidentimiz I.A Karimov milliy mafkura masalalariga to'xtalar ekan, «fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat» zarurligini uqtiradi va o'qitish erkin fikrli kishilarni tarbiyalashga qaratilgan bo'lishi, bu islohatlarni amalga oshirishda innavatsion pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish lozimligini ta'kidlab o'tadi.

O'sib kelayotgan yosh avlodda mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish, sog'lom va barkamol naslni tarbiyalab yetishtirish murabbiylarning muhim burchidir. Chunki mustaqil fikrlovchi o'quvchilargina kelajakda har tomonlama yetuk, barkamol insonlar bo'lib yetishib, mustaqil respublikamizni ilg'or jahon davlatlari qatoriga olib chiqadilar. Shu o'rinda Z.Nishonovanning «Mustaqil fikrlashga o'rgatish» nomli maqolasidagi quyidagi fikrlarni keltirib o'tish o'rinlidir: «Hozirgi davr o'qitish tizimi ham ko'proq xotirani rivojlantirishga qaratilgan. Biroq ayrim o'qituvchilarda bugun bir mavzuni tushuntirib, tayyor holda o'quvchilarga yetkazib berib, ertasiga shu mavzuning mazmunini so'rashi yoki she'rni yod olishga berish hollari ko'proq uchraydi. Bunday darsda hech qanday muammoli vaziyat yaratilmaydi va buning natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlashiga imkon berilmaydi. O'qituvchilarning o'zlari o'quvchilarning mustaqil fikr yurita olmasligini bilishadi. Lekin qanday qilib o'quvchida mustaqil fikr yuritish qobiliyatini shakllantirish mumkin? - deb berilgan savolga javob berishga qiynaladilar».

J.Tolipovanning fikricha: «Fikr-bu insonning faoliyati, iqtidor, qudrati va bilimni namoyon etadigan ma'naviy, ahloqiy, insoniy sifatidir. Fikr rivoji jamiyat ijtimoiy- iqtisodiy taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lganligi uchun, o'quvchilarning kelgusida jamiyatda o'z o'rnini to'g'ri topishi, ijodiy va ijtimoiy faol

bo'lishini nazarda tutgan holda o'qitish jarayonida ularning mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish zarur»dir.

Ayni kunda respublikamiz ta'lim fidoiylari dars berishning o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undovchi usul va uslublarini joriy qilishmoqda. «Aqliy hujum», «Muzyorar», «Intervyu», «Debat», «Bahs-munozara», «Guruhlarga bo'lib ishlash», «B, B, B», «Klaster», «Chigil yozdi», «Konferentsiya» kabi ko'plab dars berish usullari bugungi kunda o'qituvchilarimiz tomonidan samarali qo'llanib kelinmoqda.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi S.Turg'unov boshlang'ich ta'lim muammolarini tahlil qilib, bu borada o'z fikrini bayon qiladi: «Mamlakatimiz mustaqil bo'lguncha o'qituvchining ishi ham, ijodkorligi ham chegaralangan edi. O'qituvchi dars o'tish metodikasida berilgan dars etaplariga qat'iy rioya qilgan holda konspekt tuzib, shu rejaga asoslangan holda dars o'tmog'i lozim edi.

Yurtimiz mustaqillikka erishgach, barcha sohalaridagi kabi maorifda ham islohotlar keng ko'lamda olib borilmoqda. Ta'limning uzluksizligini ta'minlash maqsadida bolalar bog'chasidan boshlab oliy maktabgacha e'tibor kuchaytirilib, dastur va darsliklar yangilanmoqda, yangi-yangi dars o'tish usullari vujudga kelmoqda. O'qituvchi ijodkorligi oshirildi, bu esa ta'lim-tarbiya borasida anchagina siljishni vujudga keltirdi. Noan'anaviy darslar: ertak, sayohat, musobaqa, bozor, sport, o'yin turlaridan foydalanib yaratilgan darslar durust samara bermoqda. Bu o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirmoqda, o'qituvchining ijodkorligini charxlab bormoqda».

Xo'sh, zamonaviy boshlang'ich ta'limning o'zi nimadan iborat bo'lishi kerak?. Bola 1-4 sinflarda qanday bilimlarga ega bo'lishi lozim? Bolalarda qachondan boshlab, qanday qilib, qanday usul va uslubda ta'lim berish kerak? Bu masalalarga javob topishimiz zarur.

Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasida boshlang'ich ta'limning maqsad va vazifalari aniq belgilab berilgan. Chunonchi: bolalarning ongi va tafakkurida mavjud bo'lgan yashirin imkoniyatlarni aniqlash va rivojlantirish kichik maktab yoshidagi bolalarda ta'limning dastlabki davridan boshlab yangi imkoniyatlarni o'quv

materialini muvaffaqiyatli o'zlashtirishgagina emas, balki hayotiy muammolarni yechishga ham tayyorlaydi, o'quvchilarda o'rganish va ta'lim jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Mazkur maqsad va vazifalarni chuqur tahlil qilib, quyidagicha talqin qilish mumkin. Demak, har bir bolada yashirin holda yuragining tubida biror narsaga qiziqish, intilish ya'ni boshqacha qilib aytganda, iqtidor kurtaklari bo'ladi, ularni aniqlash hamda rivojlantirish kerak. Bu jarayon esa juda murakkabdir. Ana shu murakkabligi bilan boshlang'ich ta'lim boshqa ta'lim bosqichlaridan ajralib turadi. Chunki boshlang'ich ta'limda fanlarning asosi-alifbo o'rgatiladi. Boshlang'ich ta'limda o'rgatiladigan fanlar alifbosi DTSda belgilab berilgan, shu asosida darslarda har bir o'quvchi o'zlashtirishi zarur bo'lgan bilimlar doirasi o'rgatiladi. Agar o'quvchi 4 yil mobaynida shu fanlar alifbosini o'zlashtira olmasa, u ta'limning keyingi bosqichida o'qishni davom ettira olmaydi. Demak, biz o'quvchilarning turli o'quv faoliyatlarini, usullarini o'zlashtirishlariga imkoniyat va shart-sharoit yaratib berishimiz lozim.

Pedagogik psixologiyaning asosiy talablarida boshlang'ich sinf ta'limi dasturlardagi ko'pgina mavzu va bo'limlarni o'rgatish bolalarni ma'lum bir sinfga taaluqli namunalarni o'zlashtirishga yo'naltirishi orqali tashkil etishi kerak deb ta'kidlanadi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha boshlang'ich sinf o'quvchilarning masalalarini echishdagi ayrim yo'l va tumanlarni yetarlicha egallanmaganligi bu tushuncha va yo'llarini shakllantirishda bolalar barcha kerakli o'quv xarajatlarini bajarishga o'rgatilmaganligining natijasidir.

O'quv jarayonida foydalanishning ahamiyati katta. Ovoz chiqarib mulohaza yuritish, asoslanib berish aqliy sifatlarini o'stirishga xizmat qilib, kishi o'z mulohazalari va hatti-harakatini tahlil etishi va anglashini rivojlantiradi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda aqliy o'quv materiallarini o'zlashtirishi imkoniyatlarini ancha yuqori hisoblanadi. To'g'ri tashkil etilgan ta'limda bu yoshdagi o'rta maktab dasturida ko'rsatilgan bilimlarga nisbatan ko'proq bilimlarni tushunishlari va o'zlashtirishlari mumkin. Kichik maktab yoshdagi

bolalarning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundaki, shu davrdan boshlab o'quv materiallarini o'zlashtirmaslikning dastlabki belgilari ko'zga tashlanadi.

N . S. Leytes o'quvchilikning birmuncha o'zgarishi yosh bilan bog'liq holda bo'ladi. Birinchi bor maktabga kelgan bola hali o'zini anglashi va o'z hati harakatlarini aniq bilishi qiyin .Faqat o'qituvchigina bolaga me'yorlar qo'yishi ularning hamisha xatti-harakatlarini baholashi mumkin.

Boshlang'ich sinfda o'quvchilar o'qituvchi tamonidan qo'yiladigan shartlarni qabul qiladilar va ularning qoidalariga to'la amal qilishiga harakat qiladilar. Bola uchun o'qituvchi uning psixologik holatini belgilab beruvchi asosiy figura hisoblanib, bu holat uning nafaqat sinfdagi, balki umumiy tengdoshlari bilan bo'ladigan munosabatiga, bu munosabat esa o'z –o'zidan oilasidagi munosabatlariga ham ta'sir ko'rsatadi. Kichik maktab yoshdagi o'quvchi faolligining asosan uch xil ko'rinishi mavjud bo'lib, bular jismoniy psixik va ijtimoiy faoliyatidir.

Jismoniy faollik sog'lom avlodlarning harakat qilishiga bo'lgan turli mavjud to'siqlarni engishidagi tabiiy ehtiyojidir.Bu yoshdagi bolalar nihoyatda serharakat bo'ladilar, bu jismoniy harakat bolaning atrofdagi narsalarga qiziqishi bilan qarayotganligi,ularni o'rgatishga harakat qilayotgani bilan bog'liqdir. Bolaning jismoniy va psixik faolligi o'zaro bog'liqdir. Chunki, psixik sog'lom bola harakatchan bo'ladi, charchagan siqilgan bola esa hech narsa bilan qiziqmaydi.

Psixik faollik-bu normal rivojlanayotgan bolaning atrof –olamdagi predmetlarni, insoniy munosabatlarni bilimiga nisbatan qiziqishidir. Psixik faollik deganda, bolani o'zini bilimiga nisbatan ehtiyoji ham tushuniladi. Boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun eng qiyin qoida bu dars vaqtida jim o'tirishdir. O'qituvchilar o'quvchilarning doimo jim o'tirishlariga harakat qilishadi, ammo harakatli passiv, quvvati kam bo'lgan o'quvchigina dars jarayonida uzoq vaqt jim o'tira oladi. O'quv jarayonidagi kuzatuvlar shunga olib keladiki, aynan ana shunday passiv, qamquvvat o'quvchilar ham ko'pincha o'zlashtirishdan orqada qoladilar .

Chunki bunday o'quvchilar kamdan kam holatda o'qituvchiga savol beradilar, tushunmagan narsalarni so'rashga tortinadilar, o'qituvchi bilan muomala-munosabatiga kirishishda masofa saqlaydilar. Maxsus psixalogiya va psixiadiagnostika fanlari nuqtari nazaridan boshlang'ich ta'lim yoshdagi o'quvchilarni aqliy rivojlanishiga ko'ra muayyan toifalarga saralaydigan maxsus muassasalarga yuboradigan davr bo'lib hisoblanadi. Shu bois, aqliy jihatdan me'yorda bo'lmagan bolalarning 90% idan ortig'i aynan boshlang'ich ta'lim davrida ko'zga tashlanadi.

Statistik ma'lumotlarga qaraganda, yer yuzida 5%ga qadar shaxslarda turli jismoniy va ruhiy nuqsonlar uchraydi.

Ayrim hududlarda bu ko'rsatgich 12%ga qadar ko'tariladi. Jismoniy nuqsonlarga ko'rish, eshitish, nutq va harakat tizimlardagi mavjud maxsus o'quv rejalar va dasturlar asosida maxsus sharoitlarda, tegishli tayyorgalikdan o'tgan o'qituvchilar tomonidan o'qitiladi. Aqliy nuqsonlari bor bolalarga aqli zaiflar (debil, imbetsil va idiot darajalari) va psixik rivojlanishi suslangan bolalar kiritiladi. Psixik rivojlanishi suslangan bolalar yaqqol ko'zga tashlanmas ekan, boshlang'ich ta'limda ishlayotgan tajribali o'qituvchilar bunday bolalarni darhol ilg'ab oladilar.

Mamlakatimiz va chet-el olimlarining o'tkazgan tadqiqotlari asosida PRS bolalar toifasini shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin.

1-guruhdagi PRS bolalarga shaxsning hissiy-irodaviy sohalaridagi kamchiliklar, faoliyatni ixtiyoriy boshqarishning qisman izdan chiqishi mavjud bo'lgan o'quvchilar kiritiladi. Bu guruhga kiruvchi bolalarda tafakkur va nutq kamchiliklari kamroq zarazlangan bo'lib, deyarli ko'zga tashlanmaydi. Uning ko'rinishi shaxsn hissiy-irodaviy holatlariga bog'liq kechadi.

Psixik rivojlanishi sustlashgan bolalarning ikkinchi guruhiga kiruvchi bolalarda qisman aqliy yetishmovchiliklar uchraydiki, bu kamchiliklar shaxsning hissiy-irodaviy sohalar va bilim faoliyatini boshqarishidagi yetishmovchiliklar bilan qo'shib ketadi. Aqli zaiflik qo'pol tafakkur kamchiligi bo'lganligi bois, boshlang'ich sinfda ishlayotgan tajribali o'qituvchilar bunday bolalarni darhol ilg'ab oladilar. Ammo PRS bolalarini o'zining qator, murakkab xususiyatlariga ko'ra

ta'lim- tarbiya bilan mashg'ul bo'lgan pedagoglarning barchasi ham farqlay olmaydi. Tibbiy klinik jihatdan PRS bolalarini tasnif qilinganda, bola miyasida minimal- kichik, kam darajada asoratlari qoldirishi bu turga xos asosiy belgidir. Ammo bu asorat aqli zaiflikka olib keluvchi salbiy jarohlardan bir muncha yuzakidir. Shu bois PRS bolalarining aksariyati aqli zaiflikka kiritilmaydi.

Afsuski, hozirgi kunda ta'lim- tarbiya maskanlarida, xususan, boshlang'ich sinflarda ishlayotgan hamma o'qituvchi va tarbiyachilar ham PRS bolalar haqida yetarli malumotga ega emaslar. Shu bois, boshlang'ich sinflarda mehnat qilayotgan mutaxassislar aksariyat hollarda barcha bolalarga bir xilda munosabatda bo'ladilar. Buning oqibatida PRS bolalar toifasiga kiruvchi o'quvchi bilim olishda o'zining aqlan va jismonan me'yorida keyin tengdoshlaridan orqada qoladilar. Buni ruhan sezgan PRS bola ich – ichidan ezilib yuradi. Buning natijasida ular bora- bora sinfdoshlariga qo'shilmaydigan yoki ijtimoiy xulq me'yorlariga xilof ishlar qila boshlaydilar. Sun'iy tarzda sinfda o'zlashtirmaydigan o'quvchilar soni ortadi, bu muommoni o'z vaqtida oldini olish zarur.

### **1.3 Boshlang'ch sinflarda o'zlashtirilmasslikning oldini olishga yo'naltirilgan tadbirlar.**

O'quvchilar o'zlashtirmassligining oldini olishga yo'naltirilgan maktabda o'tkaziladigan tadbirlar.

Maktab jamoasining o'quvchilar o'zlashtirilmassligining oldini olish bo'yicha olib boriladigan ishlarning muvaffaqiyatining ma'muriyat, kasaba uyushmasi va "Kamalak" bolalar tashkilotining qobilyatiga bog'liq bo'ladi.

O'zlashtirilmasslikning oldini olishga yo'naltirilgan umum ta'lim maktab ta'dbirlariga quyidagilar kiradi.

1.O'zlashtirilmasslikning oldini olish bo'yicha pedagogika va psixologiya fanlarining ilg'or tajribalarini, tavsiyalarini maktab jamoasida umumiy o'rganishni tashkil etish.

Bu masalalarni pedagogik jamoa yig'ilishlarida, o'quvchilar konfrensiyalarida muhokama qilish maqsadga muvofiq metodik birlashmalarning yig'ilishlariga mustaqil o'rganish yo'li bilan muhokama qilinishi mumkin. Bu ishda o'quvchilar o'zlashtirmasslikning oldini olish bo'yicha maktab o'quvchilarining va alohida o'quvchilarning muvaffaqiyatli faoliyati haqida gazeta va jurnallardan maqolalarni targ'ib qiluvchi stendlar, ko'rgazmalar, ota – onalar faol o'quvchilar uchun seminarlar tashkil etish katta yordam beradi.

2. O'quvchilarning o'qishga bo'lgan hohishi, uni bartaraf etish yo'llari haqida shu sinfda dars beradigan barcha o'qituvchilar va psixologlarning o'zaro fikrlashishi, ya'ni psixologik – pedagogik konsilumni tashkil etish.

3. Barcha maktablar miqyosida sinflar aro o'zlashtirilmasslikning sabablarini tahlil qilish orqali umumlashtirish, ular orasidan mazkur maktab uchun xoslarini aniqlash, o'quvchilar o'zlashtirmassligini oldini olish maqsadida o'quv tarbiya jarayonining takomillashtirish bo'yicha maktabdagi ishlarning bosh bo'g'inlarini va asosiy bosqichlarini ajratish.

4. O'zlashtirilmasslikning oldini olishga qaratilgan tadbirlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun va o'quv materiallarining bazasini aniqlash bo'yicha ishlarni

aniqlash, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarning idrok qilishlariga imkon beruvchi diagnostik materiallarni tayyorlash.

**5.** O'quvchilarni o'qishga munosabatiga salbiy ta'sir etuvchi omillar va hodisalarni aniqlash maqsadida maktab joylarida joylarni o'rganish. Bunday hodisalarni bartaraf etish uchun hokimiyat va jamoat tashkilotlari bilan aloqa o'rnatish..

**6.** Birinchi ishga qabul qilishayotgan o'quvchilarni psixologik ko'rikdan o'tkazish, o'qishga tayyorlashlari bilan turli mashg'ulotlar o'tkazish.

**7.** O'quvchilarning ish qobiliyatlarini mustahkamlash va ularni real o'quv ishtiyoqlarini rivojlantirish uchun maktablarda qishki va yozgi sog'lomlashtirish lagerlari va sport guruhlarini tashkil etish.

**8.** O'quvchilar o'zlashtirmasligini oldini olish bo'yicha tadbirlar tizimini amalga oshirish uchun maktab ishida doimo nazorat qilish. Buning uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim.

**A)** Psixologik – pedagogik konsilum natijalarinio'quvchilarning qo'shimcha fandan o'zlashtirayotganligini aniqlash yozma ish natijalarini tekshirish.

**B)** Dars jarayonida o'qituvchi tomonidan o'zlashtirishning odini olish usullaridan foydalanayotganligiga e'tibor berish, murakkab mavzularga e'tibor berish, muhimini ajratish, o'quvchilarning yangi materiallarini tushunganligini tekshirish. Doimiy mustahkamlash va taqdirlash, xatolar ustida ishlash, o'qishda alohida qobiliyatini, o'quvchilarga individual yondashuv va boshqalar.

**V)** O'quvchilarning yillik, chorak va har kungi o'zlashtirish yozma ishlari va diagnostik ishlarini doimiy tahlil qilish. Kamchiliklar, ularni yo'qotish bo'yicha tadbirlar tizimini aniqlash.

**G)** Qishkio'quvchilarining o'zlashtirish va tarbiyalanganligi nuqtai nazaridan ularni maxsus hisobda nazorat qilish.

**D)** O'quvchilar faoliyatidagi kamchiliklarni o'rganish, o'zlashtirish materiallarini egallash maqsadida o'quvchilarning faoliyatini o'zlari tahlil qilishlarini yaxshilash.

Ilg'or o'quvchilar ishidagi tajribalarni umumlashtirish va eksperimental tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha o'zlashtirmaslikning oshirilishi bo'yicha umumlashtirish ta'birlaridan tashqari dastlabki jamoalardan sinflararo guruhiiy va individual profilaktik tadbirlar ham zarur.

Boshlang'ch sinflarda o'zlashtirilmasslikning oldini olishga yo'naltirilgan tadbirlar tizimini ishlab chiqish, avvalo, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar aqliy taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlarini yaxshi bilishni taqozo etadi.

Bu davrga kelib bola atrofida gilar bilan bola insoniiy munosabatlar tizimida ham alohida o'rin egallayotganini, ota-onasi, yaqinlari, atrofda gilar unga yosh boladek emas, balki o'z vazifalari, majburiyatlari bor bo'lgan, o'z faoliyat natijasiga ko'ra hurmatga sazovor bo'lishi mumkin bo'lgan alohida shaxs sifatida munosabatda bo'ladilar. Buning natijasida bog'lanish o'z-o'zidan oilasi, sinfi va boshqa jamoalardagi o'z o'rnini anglay boshlaganini ko'rish mumkin. Bu davrda bolaning " ***Men shuni xohlayman***" motividan " ***Men shuni bajarim kerak'*** motivi ustunlik qila boshlaydi. Maktabda birinchi sinfga kelgan har bir o'quvchida psixik zo'riqish kuchayadi. Bu nafaqat uning jismoniiy salomatligida, balki xatti-harakatida ham, ya'ni ma'lum darajada qo'rquvni kuchayishi, irodaviiy faolikning susayishida namoyon bo'ladi. O'zaro munosabatda ma'lum bir natijalarga erishgan, o'zi xohlayotgan narsalarni hamda, o'z oilasida o'zi egallagan o'rnini aniq biladigan bo'ladi. Shuningdek, u o'zini-o'zi boshqarish malakasiga ega bo'ladi, vaziyat va holatga qarab ish yurita oladi. Bu yoshdagi bolalar xatti-harakatlari va motivlari ularning o'zlariga beradigan baholariga harab " ***Men yaxshi bolaman***" emas, balki bu xatti-harakatlar o'zgalar ko'z o'ngida qanday namoyon bo'lishiga qarab baholashini tushuna boshlaydilar.

Maktab yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishi.

Maktabga kelish arafasida bolaning so'z boyligi o'z fikrini bayon eta oladigan darajada ortadi. Agar bu yoshdagi normal rivojlanayotgan bola o'z nutqida 500-600 so'zni ishlatasa, olti yoshli bola 3000-7000 so'zni ishlatadi. Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalar nutqi asosan ot, fe'l, sifat, son va bog'lovchilardan iborat bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar o'z nutqlarida qaysi so'zlarni ishlatgani afzal-u,

qaysilarini ishlatish mumkin emasligini farqlay oladilar. 6-7 yoshli bola o'z jumllalarini murakkab grammatik tizimda tuza oladi. Bola butun bolalik davrida nutqni jadal ravishda egallab borib, nutqni o'zlashtirishi ma'lum bir faoliyatga aylana boradi. 7-9 yoshli bolalarning o'ziga xos yana bir xususiyati bola nutqida o'z fikrini bayon etibgina qolmay, balki o'z suhbatdoshining diqqatini o'ziga jalb qilish uchun ham gapiradilar.

Birinchi sinfga kelgan bola predmetlarning rangi, shakli va kattaligini, ularni makonda joylashishini bilish bilan birga ularni taqqoslay oladi. Maktabda muvaffaqiyatli o'qigani uchun bolada sensor rivojlanganlik darajasini yuqori bo'lishi juda muhim. Maktab yoshiga kelib, normal rivojlanayotgan bola rasm va suratlar real hayotni aks ettirayotganligini yaxshi tushunadilar. Shuning uchun ham surat va rasmlarda nimalar aks etganini real hayotga taqqoslagan holda bilishga harakat qiladilar. Bolalar rasmlarda atrof-hayotdagi narsalarni kichiklashtirib tasvirlanganligini anglay biladilar.

10 yoshdagi o'quvchilar idroki, uning xatti-harakati, o'qish va mehnat faoliyati bilan bevosita bogliqdir. O'quvchi o'zining ehtiyoji, mayli, qiziqishi va intilishi turmush sharoitiga mos, shuningdek o'qituvchi tavsiya etgan narsalarni idrok qiladi.

Bu davrda yozma nutq ham shakllana boshlaydi. Yozma nutq jumllarni to'g'ri tuzish va so'zlarni to'g'ri yozishga ma'lum talablar qo'yilganligi bilan xarakterlanadi. Bola so'zlarni qanday eshitgan bo'lsa, shundayligicha yozilmasligini bilishi, ularni to'g'ri talaffuz etishga va yozishga o'rganishi zarur. Yozma nutqni egallashi asosida bolalarda turli matnlar haqidagi ma'lumotlar yuzaga keladi. Bu davrda yozma nutq endigina shakllana boshlaganligi bois, bolada hali o'zi yozgan fikrlarni, so'z va harflarni nazorat etish malakasi hali rivojlanmagan bo'ladi. Lekin unga ijod qilish imkoniyati beriladi. Ushbu mustaqil ijodiy ish maktab yoshidagi o'quvchilarga berilgan mavzuni anglash, uning mazmunini aniqlash, fikrini bayon etish uchun ma'lumot to'plash, muhim jihatlarini ajratib olish, uni ma'lum ketma-ketlikda bayon etish, reja tuzish malakasini yuzaga keltiradi. Jumllarni to'g'ri tuzish, aynan shu mazmunga mos

so'zlarni o'qish va ularni to'g'ri yozish, tinish belgilarini to'g'ri qo'yish, o'z holatlarini topa olish va to'grilash aqliy rivojlanishning ko'rsatkichlaridan hisoblanadi. O'qish faoliyati kichik maktab yoshidagi o'quvchining aql-idroki, sezgirligi, kuzatuvchanligi, eslab qolish va esga tushirish imkoniyatlarining rivojlanishi uchup muhim shart-sharoitlar yaratadi, hisoblash malakalarini shakllantiradi. Ta'lim jarayonida ularning bilimlar ko'lami kengayadi, qiziqishlari ortadi, ijodiy izlanish qobiliyati rivojlanadi, ularda tafakkurning faolligi, mustaqilligi ortadi, aqliy imkoniyatini ishga solish vujudga keladi. Mazkur yoshda bolalar o'z idroklarining aniqligi, ravonligi, o'tkirligi bilan boshqa yosh davrdagi insonlardan keskin farq qiladi. Ular har bir narsaga berilib, o'ta sinchkovlik bilan qarashlari sababli idrokning muhim xususiyatlarini o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Bu tasvirlar bolalarda estetik va badiiy didni rivojlantiradi. Chunki bola shu rasmlar orqali olam go'zalligini, uning turfa ranglardan iborat ekanligini anglaydi, ajratadi va o'z munosabatini bildiradi.

Tafakkurning rivojlanishini kichik maktab yoshidagi bola psixikasining sog'lomligida, uning bilish faolligida ko'rish mumkin. Bolaning qiziquvchanligi, asosan, atrof-olamni bilish, o'rganishga qaratilgan bo'ladi. Bola o'ynab turib, olam sir-sinoatlari, sabab-hodisalari va bogliqlaridan xabardor bo'lishga intiladi. Masalan, bola o'zi mustaqil ravishda qanday predmetlar suvda cho'kishi, qaysilari esa so'ziishini tadqiq qila oladi. Bola aqliy munosabatlarda faol bo'lsa, u shunchalik ko'p savol beradi va bu savollar, asosan, xilma-xil bo'ladi. Bolani qor, yomgir qanday yog'ishi, quyosh kechasi qayerda bo'lishi, mashina qanday qilib yurishi, yerdan osmongacha bo'lgan masafoni bilishi juda qiziqtiradi. Bu ularning **«Nima uchun?»**, **«Qanday qilib?»**, **«Nima orqali?»** kabi savollariga javob olishga qaratilgan bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar asosan o'zlari ko'rib turgan narsa haqida chuqurroq fikr yurita oladilar. Bu yoshdagi bolalar tafakkurining asosiy turi obrazli tafakkurdir.

10 yoshli bola mantiqiy fikrlay oladi, lekin, bu yosh asosan ko'rganlariga tayanib ta'lim olishga senzitiv bo'lgan davr hisoblanadi. So'zsiz bugungi

jamiyatimizda bolalarning aqliy rivojlanishi yangi bilimlarni tuzilish tipiga ham bogliq bo'lib, ular ma'lum darajada shakllangan kishilar tomonidan tuziladi. Chunki, aqliy rivojlanish ijtimoiy omillar bilan belgilanadi. Indivd ijtimoiy munosabatlar bilan o'zgaradi. Bolaning maktabda muntazam ravishda o'qishga o'tishi uning atrof-hayotdagi narsa-hodisalarga nisbatan fikrini va munosabatlarini o'zgarishiga olib keladi. Kichik maktab yoshdagi o'quvchilarning tafakkuri mantiqiy fikrlash, mulohaza yuritish, hukm va xulosa chiqarish, taqqoslash tahlil qilishni turli usullarini qo'llashdek o'ziga xos xususiyatlari bilan maktabgacha yoshdagi bolalar va o'smirlardan farq qiladi.

Ta'lim jarayonida tafakkur operatsiyalariga, mustaqil fikrlashga o'rgatish kichik maktab yoshdagi o'quvchilarni kamol toptirishning garovidir.

O'quv faoliyati psixik funksiyalarni yuqori rivojlanganlik darajasini talab etadi. Bolaning diqqati, xotira va tasavvuri mustaqil tus ola boshlaydi. Lekin, odatdagi holat va vaziyatlarda bolaga o'z psixik funksiyalarini yuqori darajada tashkil etish hali birmuncha murakkabdir.

10-11 yoshli bolalar bilish jarayonlaridagi ixtiyoriylik irodaviy zo'riqish asosidagina, bola o'zini atrofdagilarning talabi yoki shaxsiy harakatga intilgandagina yuzaga, kelishi mumkin.

Boshlangich sinf o'quvchilarida diqqatni irodaviy zo'r berish bilan boshqarish va vaziyatga moslash imkoniyati yaxshi bo'lmaydi. Buning asosiy sababi, ularda ixtiyoriy diqqatning kuchsizligi va beqarorligidir. Bolalarda ixtiyorsiz diqqat ko'proq rivojlangan bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quv materiallarining yaqqolligi, yorqinligi, jozibadorligi, o'quvchida beixtiyor his-tuyg'ular uyg'otadi, irodaviy zo'riqishsiz, osongina fan asoslarini egalash imkonini beradi.

1-2 sinf o'quvchilari diqqatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri - uning yetarlicha barqaror emasligidir. Shuning uchun ham ular o'z diqqatlarini muayyan narsalarga qarata olmaydilar va diqqat ob'ektlar ustida uzoq tura olmaydi.

Ta'lim jarayoni kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ixtiyoriy, barqaror, mustahkam, kuchli, faol ongli diqqatni rivojlantirishga qulay shart-sharoit yaratadi, Bilim olish jarayonida mustaqil aqliy mehnat qilish, misol-masalalar yechish,

mashqlar bajarish, takrorlash irodaviy zo'r berish jarayonida ixtiyoriy, ongli diqqat tarkib topadi.

Bu yoshdagi bolada ixtiyoriy diqqatni to'plash, tashkil qilish, uni taqsimlash, ongli ravishda boshqarish o'quvi shakllana boshlaydi. Kichik maktab yoshdagi bola ma'lum darajada o'z faoliyatini o'zi mustaqil rivojlantira oladi. U o'z rejasini, u yoki bu ishni qanday ketma-ketlikda bajarishini so'z bilan ifodalab bera oladi. Rejalashtirish so'zsiz bolaning diqqatini tashkil eta oladi va rivojlantiradi. Ularda ixtiyorsiz diqqat ustunlik qiladi. Kichik maktab yoshidagi bolalar so'zsiz o'z diqqatlarini aqliy masalalarga qarata oladilar, lekin bu juda katta irodaviy kuchni va yuqori motivatsiyalarni tashkil etalishini talab qiladi.

Bolaning hayoli tevarak-atrof taassurotlari, tasviriy san-at asarlarini yetarli darajada aks ettirishda vujudga keladi. Siymolar, shartli belgilar, tabiat manzaralari jamlanib, o'quvchilarda hayol paydo bo'ladi.

O'quv faoliyati bolanngi berilgan o'quv materiallarini esda saqlab qolishini talab etadi. O'qituvchi o'quvchisiga nimalarni eslab qolishi zarurligi haqida ko'rsatmalar beradi. O'quvchi nimani eslab qolishi kerakligini takrorlaydi, uni tushunib olishga harakat qiladi. Lekin bu yoshda **ixtiyorsiz** xotira, shubhasiz, ustunlik qiladi. Bolaning xotirasida saqlab qolishini asosan uning ishga bo'lgan qiziqishi belgilab beradi. O'quv materialini tushunish, eslab qolishning asosiy sharti hisoblanadi.

Dars jarayonida o'qituvchi turli vaziyatlarni tasavvur qilishni so'raydi. Bu holat albapd, biron-bir yordamchi qurollar-predmetlar, maketlar, sxemalar bo'lgan taqdirdagina o'quvchi tasavvurini rivojlantirishi mumkin. Aks holda bu yoshdagi bolalar mustaqil tasavvur qilishga qiynaladilar.

Psixolog Piaje tadqiqotlarida 6- 7 yoshli bolalardan turli xil balandlikdan idishlardagi suv miqdorini belgilash so'ralgan. Bolalar suv miqdorini bir-biri bilan teng bo'lgan idishlarda ko'rganlaridan so'nggina o'z **javoblari** noto'griligini bilganlar. Kichik maktab **davrida** tasavvur, asosan, bolalar rasm chizayotganlarida, shuningdek ertak va hikoyalar to'qiyotganlarida rivojlanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalar tasavvuri juda keng va xilma xil bo'ladi. Ayrim o'quvchilar real

borliqni tasavvur etsalar, boshqalari esa fantastik obraz va vaziyatlarni tasavvur etadilar. Shu bois kichik maktab yoshidagi bolalarni realistlar va fantazyorlarga ajratish mumkin. Bolalar ko'pincha o'zlariga ma'lum siymolar, syujetlardan foydalangan holda yangi obrazlarni tasavvur qiladilar, yaratadilar. Bu tasavvurlar zahirida ularning qo'rquvni yengishi, do'st topishi, xursandchilik hislari yotadi. Bundan tashqari tasavvur etish natija olib keluvchi faoliyat sifatida ham namoyon bo'lishi mumkin. Bola real hayotda qiyinchiliklarga duch kelib, ulardan chiqib keta olmagan holatda ko'pincha hayolga beriladi. Masalan, mehribonlik uyida tarbiyalanayotgan bola o'zining hamma havas qiladigan oilasi, uyi bo'lishini, bu uyga o'g'rilar kelib qolsa, u qahramonlik qilishini tasavvur qiladi. O'z tasavvurida yaxshi yoki yomon holatlarni boshidan kechirgan bola o'zining kelgusi xatti-harakatlari motivatsiyasi uchun zamin tayyorlaydi. Kattalarga nisbatan tasavvurning bolalar hayotida ahamiyati juda katta. Bola tasavvur qilib atrof-hayotni chuqurroq bila boshlaydi, o'z-o'zining shaxsiy tajribasidan tasavvur yordamida chetga chiqa oladi, ijodiy layoqati rivojlanadi, shaxsiy xususiyatlarining rivojlanishiga xizmat qiladi.

#### O'quv faoliyatiniyag xususiyatlari

Kichik maktab yoshidagi bola o'qituvchisi bilan yaxshi emotsional munosabatda bo'ladi. Shu davrgacha bevosita kattalar rahbarligida u yoki bu axborotlarni o'zlashtirib kelgan bo'lsa, endi o'z xohish irodasi bilan zarur ma'lumotlar to'plashga, o'z oldiga aniq maqsad va vazifa qo'yishga harakat qiladi. Bolaning ana shu faolligi xotirasini muayyan darajada rivojlanganligini bildiradi. Oqilona tashkil qilingan ta'lim jarayoni mazkur yoshdagi bolalarning tafakkurini jadal rivojlantiradi. Bu yoshdagi bola boshqa davrlarga nisbatan ko'proq narsani o'zlashtiradi. Maktab ta'limi o'quvchining turmush tarzini, ijtimoiy mavqeini, sinf jamoasi va oila muhitidagi o'rnini o'zgartiradi. Uning vazifasi o'qishdan, bilim olish, ko'nikma va malakalarni egallash, o'zlashtirishdan iborat bo'lib qoladi.

Kichik maktab yoshidagi bolaning muhim xususiyatlaridan biri, unda o'ziga xos ehtiyojlarning mavjudligidir. Bu ehtiyojlar o'z mohiyatiga ko'ra muayyan bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga qaratilmay, balki faqat o'quvchilik

istagini aks ettirishdan ham iboratdir. Shu ehtiyojlar asosida o'z portfeliga, shaxsiy o'quv qurollariga, dars tayyorlash stoliga, kitob qo'yish javoniga ega bo'lish, kattalardek har kuni maktabga borish istagi yotadi. Kichik maktab yoshidagi bola o'zining tub mohiyati va vazifasini tushunib yetmaydi, balki hamma maktabga borishi kerak deb tushunadi. Kattalarning ko'rsatmalariga amal qilib tirishqoqlik bilan mashg'ulotlarga kirishib ketadi. Oradan ma'lum vaqt o'tgach, shodiyona lahzalarning taassuroti kamayishi bilan maktabning tashqi belgilari o'z ahamiyatini yo'qota boradi va bola o'qishni kundalik aqliy mehnat ekanligini anglaydi. Shunda bola aqliy mehnat ko'nikmasiga ega bo'lmasa uning o'qishdan ko'ngli soviydi, unda umidsizlik hissi vujudga keladi. O'qituvchi esa bunday holning oldini olish uchun bolaga ta'limning o'yindan farqi, qiziqarliligi haqida ma'lumotlar berishi va uni shu faoliyatga tayyorlashi kerak. Ta'limning mazmuni o'quvchining bilimlarni egallashga qiziqishi, aqliy mehnati natijasida qanoatlanish hissi bilan uzviy bog'liqdir. Bu his o'qituvchining rag'baglantirishi bilan amalga oshiriladi va o'quvchida samaraliroq ishlash moyili, istak va ishtiyoqini shakllantiradi. Bolada paydo bo'lgan faxrlanish, o'z kuchiga ishonch hislari bilimlarni o'zlashtirish va malakalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Kichik maktab yoshidagi bolalarni o'qitish jarayoni, o'quv faoliyatining asosiy komponentlari: o'quv vazifalari, o'quv harakatlari, nazorat etish va baholash bilan (V.V.Davidov bo'yicha) tanishtirishdan boshlanadi. Bu borada barcha irodmetli harakatlar aqliy rivojlantirishga qulay bo'lgan sharoitda amalga oshirilishi juda muhim. Agar bola o'quv harakatlarini noto'g'ri bajarsa bu uning o'quv harakatlarini yo nazorat va baholash bilan bogliq harakatlarni bilmasligi, yoki ularni yaxshi egallamaganligidan bo'lishi mumkin. Bolaning mustaqil ravishda bajargan harakatlari natijalarini o'z xatti-harakatlari xususiyatlari bilan taqqoslay olishlari unda o'z-o'zini nazorat etish xususiyatlarini ma'lum darajada shakllanganidan dalolat beradi. O'quv vaziyatlarida bolalar ayrim turdagi masalalarni yechish yo'llari bilan tanishadilar va ularni egallagan zahoti aniq bir masalalarni yechishda amaliy foydalanadilar. Pedagogik psixologiyaning asosiy talablarida boshlangich sinf ta'limi dasturlaridagi ko'pgina mavzu va bo'limlarni o'rgatish bolalarni ma'lum bir sinfga taalluqli namunalarini

o'zlashtirishga yo'naltirish orqali tashkil etilishi kerak deb ta'kidlanadi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, boshlang'ich sinf o'quvchilarining masalalarni yechishdagi ayrim yo'l va tushunchalarni yetarlicha anglamaganligi bu tushuncha va yo'llarni shakllantirishda bolalar barchakerakli o'quv harakatlarini bajarishga o'rgatilmaganligining natijasidir. O'quv faoliyatida nazorat va o'z-o'zini nazorat etish kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'quv harakatlarini mustaqil rejalashtirishi va bajarishni shakllanishida juda muhimdir. Bolalar tafakkuri va nutqining rivojlanishida ovoz chiqarib mulohaza yuritishning va bu uslubdan o'quv jarayonida foydalanishning ahamiyati katta. Ovoz chiqarib mulohaza yuritish va o'z yechimini asoslab berish aqliy sifatlarni o'sishiga xizmat qilib, kishi o'z mulohazalari va xatti-harakatini tahlil etishi va anglashini rivojlantiradi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda aqliy va o'quv materialini o'zlashtirish imkoniyatlari ancha yuqori hisoblanadi. To'g'ri tashkil etilgan ta'limda bu yoshdagi bolalar o'rta maktab dasturida ko'rsatilgan bilimlarga nisbatan ko'proq bilimlarni tushunishlari va o'zlashtirishlari mumkin. Kichik maktab yoshidagi bolalarning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundaki, shu davrdan boshlab, o'quv materialini o'zlashtirmaslikning dastlabki belgilari ko'zga tashlanadi. O'zlashtirmasliknish asosiy sabablari: bu aqliy taraqqiyot va o'quvchanlikning birmuncha orqada qolishidir. P S.Aeyte mulohazalariga ko'ra inson yoshi ulg'aygan sari aqliy rivojlanish darajasi birmuncha ko'tariladi, uquvchanlik esa birmuncha pasayadi. Kichik maktab yoshidagi bolalarning uquvchanligi, albatta, o'smir va o'spirinlarga nisbatan yuqori, lekin o'smir va o'spirinlarning aqliy rivojlanganlik boshlang'ich sinf o'quvchilariga nisbatan yuqoridir. O'qituvchining muomala va munosabat uslubi o'quvchining xatti-harakatiga ta'sir ko'rsatadi, o'qituvchining dars jarayonida har bir o'quvchiga ta'sir ko'rsatishi uchun qulay imkoniyati bor. O'quv faoliyatining boshlanishi jarayonida bolalarning kattalar va tengdoshlari bilan qiladigan muomala-munosabatlari yangicha tus ola boshlaydi. *"Bola-kapa"* munosabati *"bola - ota-ona"* munosabatidan tashqarida yuzaga keladi. Chunki, o'qituvchi bolaga, ota-onaga nisbatan ko'proq ravishda normativ talablar qo'yadi. Birinchi bor maktabga kelgan bola hali o'zini to'liq anglashi va o'zi xatti-

harakatlarini aniq bilishi qiyin. Faqat o'qituvchigina bolaga me'yorlar qo'yishi, ularning xatti-harakatlarini baholashi mumkin, xatti-harakatlarini boshqalar bilan moslashtirishga sharoit yaratishi mumkin. Boshlangich sinfda o'quvchilar o'qituvchi tomonidan qo'yiladigan yangi shartlarni qabul qiladilar va ularning qoidalariga to'la amal qilishga harakat qiladilar. Bola uchun o'qituvchi uning psixologik holatini belgilab beruvchi asosiy figura hisoblanib, bu holat uning nafaqat sinfdagi, balki, umuman tengdoshlari bilan bo'ladigan munosabatiga, bu munosabat esa o'z- o'zidan oilasidagi munosabatlarga ham ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, bu munosabatlar uning o'quv faoliyati muvaffaqiyatini ham belgilab beradi. O'qituvchining o'quvchilarga ta'sir ko'rsatishi va munosabatiniig quyidagi uslublari mavjud. Avtoritar uslub: bu qattiqqo'llik bo'lib, bunda o'qituvchi so'zsiz o'ziga bo'ysunishlarini talab etadi. Lekin, nima uchun qattiqqo'llik o'quvchilarini qilayotganini yoki o'quvchilariga nima uchun o'zlarini shunday tutishlari lozimligini tushuntirib bermaydi, shuningdek, o'quvchilarni o'z xatti-harakatlarini mustaqil boshqarishga ham o'rgatmaydi. O'qituvchi dars davomida o'quvchilardan jim o'tirishini, savollarga doimo qo'l ko'tarib, o'qituvchining ruxsati bilan javob berishini, o'qituvchining ko'rsatmalarini so'zsiz bajarishini talab etadi. Bunday pedagoglar o'quvchilarning qiziqishlari asosida emas, balki asosan o'quv rejasi asosida dars o'tadilar. Dars davomida ham bahs-munozara uchun deyarli imkoniyat yaratilmagan holda asosan o'qituvchining fikri singdiriladi. O'quvchilari bilan muomala munosabatda ham ularning individual psixologik xususiyatlari jumladan, nerv tizimining qo'zgaluvchanlik darajasini ham e'tiborga olmaydilar. Bu uslub o'qituvchini sinfdan, o'quvchidan uzoqlashtiradi. Emotsional sovuqlik sinfda intizomli o'quvchida yakkalanish, xavotirlik, himoya qilinmaganlik hissini ham yuzaga keltiradi. Bu uslub sinfda yuqori o'zlashtirish ko'rsatkichini berish, lekin bu yakkalashtirish, asosan, xotira evaziga bo'lib, lekin mustaqil tafakkur, ijodkorlik, hozirjavoblik kabi xususiyatlarni rivojlanishdan ortda qolishiga sabab bo'ladi, unda doimiy xavotirlik o'ziga nisbatan ishonchsizlikni keltirib chiqaradi.

*Impvrativ uslub* o'qituvchining o'quvchilari o'qituvchi sinfda bo'lmagan vaqtlarda o'z-o'zini boshqarish malakasi bo'lmaganligi uchun ham intizomga

mutlaqo bo'ysunmaydilar. Bu, asosan, to'polonda namoyon bo'ladi. Bu uslub o'qituvchining mustahkam irodasini ko'rsatadi, lekin bu irodada o'quvchiga nisbatan muhabbat hamda o'quvchining *"ustozim meni yaxshi ko'radi"* degan fikri emas, balki qo'rquv hissi mavjuddir.

**Demokratik uslub** o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasida do'stona munosabat o'rnatilishiga asos bo'ladi. Darsdagi intizom majburiy emas, balki muvaffaqiyatga erishish garovi sifatida bolalar ijobiy emotsiyani, o'ziga ishonch, o'z muvafaqqati, yutuqlaridan quvonishi, do'stlari bilan faoliyatda hamkorlik hissini beradi. Demokratik uslub bolalarni birlashtiradi. Shu bilan birga o'zining faoliyati natijalariga qiziqish uyg'otgan holda o'zi uchun o'zi harakat qilishi lozimligini anglatadi. O'zini-o'zi boshqarishga, o'z xatti-harakatini o'zi nazorat qilishga o'rgatadi. Har bir ishga mas'uliyat bilan yondoshuv hissi o'qituvchining shu yoshdagi bolalar bilan demokratik muomala munosabati asosidagina shakllanadi. *Liberal uslub* kasbiy layoqati yo'q bo'lgan o'qituvchilarga xos bo'lgan uslubdir. Bunday o'qituvchi dars jarayonini yaxshi tashkil eta olmaydi. Bunday darslarda har bir bola o'z tarbiyalanganlik darajasiga qarab o'zini tutadi. Bola o'z majburiyatlarini yaxshi his qilmaydi. Muomala munosabatdagi liberal uslub psixologiya va pedagogika fanlariga mutlaqo zid uslub hisoblanib, bolalar shaxsini shakllantirish va tarbiyalash jarayonida bu usulni qo'llab bo'lmaydi. Shunday qilib boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan muomala-munosabatdagi interativ uslub, asosan, ma'lum bir chegaralarga asoslangan holda bola shaxsi rivojida salbiy ta'sir ko'rsatadi. Demokratik uslub o'qituvchidan muomala-munosabatda juda katta kasbiy mahoratni talab etgan holda, bola shaxsining ijobiy tomonlarini rivojlantiruvchi yagona uslub hisoblanadi. Liberal uslub esa o'quvchini emotsional zo'riqtirmaydi, lekin uning shaxsi rivojiga ham samarali ta'sir ko'rsatmaydi. O'qituvchining munosabat uslubi o'quvchining faolligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchi faolligining asosan uch xil ko'rinishi mavjud bo'lib bular jismoniy, psixik va ijtimoiy faollikdir.

*Jismoniy faollik* – sog'lom organizmning harakat qilishga bo'lgan turli mavjud to'siqlarni yengishdagi tabiiy ehtiyojdir. Bu yoshdagi bolalar nihoyatda serharakat

bo'ladilar. Bu jismoniy harakat bolaning atrofdagi narsalarga qiziqish bilan qarashi, ularni o'rganishga harakat qilayotgani bilan ham bog'liqdir. Bolaning jismoniy va psixik faolligi o'zaro bog'liqdir. Chunki, psixik sog'lom bola harakatchan bo'ladi, charchagan, siqilgan bola esa deyarli hech narsa bilan qiziqmaydi. Psixik faollik - bu normal rivojlanayotgan bolaning atrof-olamdagi predmetlarni, insoniy munosabatlarni bilishga nisbatan qiziqishdir. Psixik faollik deganda, bolani o'zini bilishga nisbatan ehtiyoji ham tushuniladi. Maktabga birinchi bor kelgan bolada qator qiyinchiliklar yuzaga keladi. Ularga, avvalo, bir qancha maktab qoidalariga bo'ysunishi qiyin kechadi. Boshlangach sinf o'quvchisi uchun eng qiyin qoida bu dars vaqtida jim o'tirishdir. O'qituvchilar o'quvchilarning doimo jim o'tirishiga harakat qxg'lashadi, lekin kamharakatli, passiv, quvvati kam bo'lgan o'quvchigina dars jarayonida uzoq vaqt jim o'tira oladi. o'quvchini qanday qilib maktab qoidalariga bo'ysunishga o'rgatish mumkin? Bu borada o'qituvchining o'quvchilari bilan qiladigan muomala-munosabat uslubining ahamiyati juda katta. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning muhim xususiyatlaridan biri ulardagi o'qituvchiga ishonch hissi bo'lib, bunda o'qituvchining o'quvchiga ta'sir ko'rsag'ish imkoniyati juda katgadir. Bola o'qituvchini aql sohibi, ziyrak, sezgir, mehribon inson deb biladi. O'qituvchining obro'si oldida ota-onalar, oilaning boshqa a'zolari, qarindosh urug'larining nufuzi keskin kamayadi. Shu sababli, bolalar o'qituvchining har bir so'zini qonui sifatida qabul qiladilar. Demak, kichik maktab yopshdagi o'quvchilar rivojida yetakchi bulgan o'quv faoliyati o'qituvchi shaxsi va o'quvchi bilan munosabat uslubining ahamiyata juda katta.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari shaxsining shakllanishi

O'quv faoliyati kichik maktab yoshidagi o'quvchi uchun nafaqat bilish jarayonlarining yuqori darajada rivojlanishi, balki shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish uchun ham imkoniyat yaratadi. Yetakchi bo'lgan o'quv faoliyatidan tashqari boshqa faoliyatlar- o'yin, muloqot va mehnat faoliyati ham o'quvchi shaxsi rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu faoliyatlar asosida muvaffaqiyatga erishish motivlari bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy xususiyatlar tarkib topa boshlaydi. O'quv faoliyati kichik maktab yoshidagi bolalarda o'qishda ma'lum yutuqlarga

erishish ehtiyojini qondirishga, shuningdek, tengdoshlari orasida o'z o'rniga ega bo'lishiga imkoniyat ham yaratadi. Aynan ana shu o'rin yoki mavqega erishish uchun ham bola yaxshi o'qish uchun harakat qilishi mumkin. Bu yoshdagi bolalar doimiy ravishda o'zlari erishgan muvaffaqiyatini boshqa tengdoshlari muvaffaqiyati bilan solishtiradilar. Ular uchun doimo birinchi bo'lish nihoyatda muhim. Kichik maktab davrida bolalardagi musobaqaga kirishish motivi tabiiy psixologik ehtiyoj hisoblanib, bu motiv ularga kuchli emotsional zo'riqishni beradi. Bu xususiyatlar aslida bog'cha davridan boshlab yuzaga kela boshlaydi va kichik maktab davrida, shuningdek, o'smirlik davrida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalar kattalarning u haqidagi fikr va bergan baholariga qarab, o'zlariga o'zlari baho beradilar. O'quvchining o'ziga-o'zi beradigan bahosi, asosan, to'g'ridan-to'g'ri o'qituvchining beradigan bahosiga va turli faoliyatlaridagi muvaffahiyatlariga bog'liq. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'z-o'ziga berddigan baholari turlicha - yuqori, adekvat - mos yoki past bo'lishi mumkin. Bu yoshdaga bolalarda mavjud bo'lgan ishonuvchanlik, ochiqlik, tashqi ta'sirlarga beriluvchanlik, itoatkorlik kabi xususiyatlari ularni shaxs sifatida tarbiyalash uchun yaxshi imkoniyat yaratadi. Kichik maktab yoshi davrini bolaning turli faoliyatlarda muvaffaqiyatga erishishini belgilab beruvchi asosiy, shaxsiy xususiyatlarni yuzaga kelish va mustahkamlash davri deb hisoblash mumkin. Bu davrda muvaffaqiyatga erishish motivlari tarkib topishi bilan bir qatorda, mehnatsevarlik va mustaqillik kabi sifatlar rivojlanadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda mehnatsevarlik, asosan, o'qish va mehnat faoliyatida rivojlanadi va mustahkamlanadi. Mehnatsevarlik bolada o'zi qilayotgan mehnati unga zavq bergan taqdirdagina yuzaga keladi. Bolada mustaqillik xususiyatining shakllanishi asosan kattalarga bog'liq. Agar bola haddan ziyod ishonuvchan, itoatkor, ochiq xususiyatli bo'lsa, unda asta- sekinlik bilan bo'ysunuvchanlik, tobelik xususiyati mustahkamlana boradi. Biroq bolani vaqtli mustaqillikka undash, unda ba'zi salbiy xislatlarning shakllanishiga ham olib kelishi mumkin, chunki hayotiy tajribalarni, asosan, kimlargadir taqlid qilgan holda o'zlashtiradi. Mustaqillikni shakllantirish uchun bolaga mustaqil bajaradigan ishlarni ko'proq topshirish va unga ishonch

bildirish nihoyatda muhimdir. Shuningdek, shunday bir ijtimoiy psixologik muhit yaratish kerakki, unda bolaga biron bir mas'ul vazifani mustaqil bajarishni topshirish, bu ishni bajarish jarayonida bola o'zini tengdoshlari, kattalar va boshqa odamlarning lideri deb his qilsin. Ana shu his bolada mustaqil bo'lishga undovchi motivlarni yuzaga keltiradi.

11 yoshli bolalar o'zlarining individual xususiyatlarini anglay boshlaydilar. Bolaning o'z-o'zish anglashi ham jadal rivojlana boradi va mustahkamlana boshlaydi. Bu davrda bolalar o'zlarining ismlariga yanada ko'nroq ahamiyat bera boshlaydilar va ularning ismlari tengdoshlari va atrofdagilari tomonidan ijobiy qabul qilinishiga harakat qiladilar. Bolani o'zining tashqi ko'rinishi va gavda tuzilishiga beradigan bahosi ham o'z-o'zini anglashida ahamiyati juda kata. Kichik maktab davrining oxiriga borib bolalar, ayniqsa, qizlar o'zlarining yuz-tuzilishlariga alohida e'tibor bera boshlaydilar. Kichik maktab yoshidagi o'quvchining o'quv faoliyati jarayonida o'zidagi xulq-atvorni va faoliyatni o'zi gomonidan muvofiqlashtirish qobiliyati rivojlanadi, ongli ravishda bir fikrga kela olish qobiliyati rivojlanadi, o'z faoliyatini o'zi uyushtirishga hamda bilim olishi jarayoniga bo'lgan qiziqishining qaror topishiga yordam beradi. O'quvchi xulq atvorining motivlashtirishi ham o'zgaradi. Bunda do'stlari va jamoaning fikrlari asosiy motivlar bo'lib qoladi. Axloqiy his tuyg'ular va shaxsning irodaviy xususiyatlari shakllanadi. 5-6 yoshlarda ko'zga tashlangan bolalarning xususiyatlari yillar davomida rivojlanadi va mustahkamlanadi, o'smirlik davrining boshlariga kelib, juda ko'pgina shaxsiy fazilatlar shakllanib bo'ladi. Bolalarning individualliklari ularning bilish jarayonida ham ko'rinadi. Bu davrda bolalarning bilimlari kuchayadi va chuqurlashadi, ko'nikma va malakalari takomillashadi. 3-4 sinflarga borib, aksariyat bolalarda umumiy va maxsus layoqatlar ko'zga tashlanadi. Kichik maktab davrida hayot uchun nihoyatda ahamiyatli bo'lgan muvaffaqiyatga erishish motivi mustahkamlanadi, bu esa o'z-o'zidan boshqa layoqatlarni jadal rivojlanishiga olib keladi. Bu yoshdagi bolalarda idrok, diqqat, xotira, tafakkur va nutq to'liq shakllanib bo'lgani uchun ham ularga ta'lim berishda kattalarga qo'llaniladigan uslublardan foydalanish mumkin. Kichik maktab

yoshidagi bolalar psixik rivojlanishiga ularning atrofidagi odamlar, ota-onasi, ayniqsa, o'qituvchi bilan bo'ladigan munosabati orqali erishish mumkin. 3-4 sinflarga borib bola uchun uning o'rtoqlari bilan munosabatining ham ahamiyati ortadi. Bu munosabatlardan kattalar ta'lim-tarbiya maqsadlarida foydalanishlari mumkin. Bu yoshdagi bolalar soatlab yolgiz holda sevimli maxshulotlari bilan shug'ullanishlari mumkin va shu asosda ularda mehnatsevarlik va mustaqillik fazilatlarini shakllanadi.

Takrorlash va muhokama qilish uchun savollar:

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'ziga xos psixologik xususiyatlari.

1. Maktabga ijtimoiy -psixologik moslashuv yo'llari qanday?
2. Bolalar intellektual rivojlanishida kichik maktab davrining ahamiyati.
3. O'quv jarayoni davomida yuzaga keladigan muammolar;
4. Kichik maktab davridagi bolalar shaxsi rivojida yuzaga keladigan yangilanishlar.

### **O'zlashtirmaslikning oldini olish uchun sindda o'tkaziladigan tadbirlar.**

Sinfda o'tkaziladigan tarbiyaviy ta'sir o'qituvchilar, ota – onalar, jamoatchilik va o'quvchilar tashkilotlarining kuchlarini o'quvchilarning o'qish muvaffaqiyatiga tarbiyaning ta'sirini oshirish maqsadida birlashtirish bilan bog'liq. O'qishda qiynalayotgan bolalarga nisbatan qulay ahloqiy iqlim yaratish muhimdir. Bunda birinchi navbatda bolaning ustidan kulish, haqoratlashlariga yo'l qo'ymaslik, ta'sirini antipedagogik usullarga yo'l bermaslik zarur.

Bunday iqlim yakdil tashkil e'tilgan jamoadagina yaratish mumkin. Shuning uchun ham o'zlashtirmaslikning oldini olishning muhim tarbiyaviy ta'sirlaridan biri o'quvchilar jamoasida birdamlikni tarbiyalash, o'qishga nisbatan ijobiy munosabatni tarbiyalashda yoshlar tashkilotining rolini oshirish bo'yicha tadbirlar tashkil e'tish muhim hisoblanadi.

Jamoa barcha tarbiyaviy kuchlarning maqsadga yo'naltirilgan ta'siri va birlashishi natijasida bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchi o'zini-o'zi tarbiyalashi va o'qishga qiziqishi oshadi.

O'quvchilarni o'zlashtirmaslik sabablari haqidagi psixologik pedagogik konsimium xulosasi bilan tanishtirib borish maqsadga muvofiq, uy vazifalarini bajarishning oqilona yo'llarini ko'rsatish, uy vazifalarini bajarishga ketadigan vaqtni domo tahlil qilish zarur.

Boshlang'ich sinflarda o'quv ishlarini tashkil etish elementlarini egallash bo'yicha maxsus mashg'ulotlar tashkil e'tilishi maqsadga muvofiq. O'quvchilarning o'z kun tartibini oqilona tashkil e'tishga o'rgatish, uyda va maktabda mustaqil o'quv ishlarini asosiy bosqichlarini ajratish, kitob bilan to'g'ri ishlash, o'quv va mehnat topshiriqlarini bajarishda domiy o'z o'zini tekshirishni, amalga oshirishga qaratish lozim. Diqqat, xotira, tafakkur kabi bilish jarayonlarini rivojlantirish yo'llari bilan o'quvchilarni tushuntirish muhim.

Tarbiyaviy ishlar vositasida o'zlashtirilmasslikning oldini olish sinf jamoasi hayotini shunday tashkil etish bilan bog'liqki, bunda har bir o'quvchi, ayniqsa, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchior'toqlari bilan doimiy aloqani his qiladi. Ular bilan muloqotga ehtiyoj sezadi. Bu esa sinfdan tashqari ishlarining har xil shakllarini tashkil etish va har xil o'quvchini maktabdagi o'zini o'zi boshqarish organlari tizimiga jalb etishni anglatadi.

Bunday ishlarni tashkil etishda o'g'il va qiz bolalarning qiziqishlari hisobga olinishi, o'quvchilarda mustaqillikni rivojlantirishga olib keladi. Bu ishda o'quvchilarga ota onalari yordam berishi mumkin. O'quv yili boshida bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar ota – onalar bilan yaqin aloqa o'rnatish uchun barcha chora tadbirlarini ishlab chiqish, ularning uylariga borish, farzandlari o'zlashtirmasliklarini oldini olish bo'yicha hamkorlikda ishlarini ishlab chiqish lozim. Oilaning tarbiyaviy ta'siri mahsuldorligini oshirish maqsadida ota – onalar majlislarida bolalarning har tomonlama rivojlanishi va tarbiyasidagi ularning rolini oshirish haqidagi masalalarni muhokama qilish zarur.

O'qishda orqada qolishning oldini olish olish bo'yicha sinfdagi tadbirlar individual ishlar bilan olib borish lozim. Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarning o'quv ishlarni oqilona rejalashtirish va tashkil etishda ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga, muhimini ajratish ko'nikmasiga o'qishda o'z o'zini nazorat qilish uy vazifalarini bajarishga, oraliq va mustaqil ishni shakllantirishga e'tibor berish lozim.

Maxsus to'garaklardan ma'lum bo'lishicha boshlang'ich sinflarda uy vazifalarini bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarni nisbatan ko'proq yordam yo'li bilan yechimda o'quvchilar qiynaladigan savollarni o'zlashtirishini, albatta, nazorat qilinishi zarur. Dars qoldirgan o'quvchining o'tilgan mavzuni o'zlashtirilganligini nazorat qilish lozim.

### **Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan o'tkaziladigan guruhiiy va individual tadbirlar.**

Boshlang'ich sinf o'quvchisi tarbiyaviy ta'sirlarni tanlashda, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchi ham jamoat topshiriqlaridan chetga qolmasligi, balki bunday topshiriqlarga faol ishtirok etishiga e'tibor qaratmog'i lozim. O'quvchilarda bu topshiriqlarni bajarish jarayonida ongli tartib intizom va javobgarlik hissi shakllanadi.

Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarda o'qishga qiziqishni ortirish uchun turli xil ommaviy tadbirlarga jalb etish lozim, bu ularda irodaviy sifatlarni shakllantiradi.

Jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarda o'qishda har xil turdagi yordam uyushtirishi lozim. Bunda yaxshi o'qiydigan bolalarga biriktirishi, har xil fanlar bo'yicha maslahatchilar guruhini tashkil e'tish lozim. O'qish va jamoat faoliyatlarida bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarning kichik muvaffaqiyatiga ham e'tibor berish, maqtash muhim.

Ba'zi hollarda topshiriqlarni almashtirib turib, oldindan turlicha yordam ko'rsatib, o'ziga ishonch va hissiy faollikka undash uchun o'qishda va mehnatda muvaffaqiyat vaziyatlarini yaratish ham mumkin. Javobgarlik va tartib – intizom evaziga bazi o'quvchilarning o'zlashtirishi yaxshilanayotganligini doimo ta'kidlash lozim. Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar, tarbiyasi qiyin o'quvchilar bilan ishlashda ba'zi hollarda majburlash va bo'ysunish choralarini qo'llashlari mumkin, lekin ulardan foydalanish vaqti – vaqti bilan bo'lib, tarbiyaviy ta'sirining boshqa usullari

bilan birgalikda olib boriladi. Talabchanlik, adolatli, to'g'ri va me'yoriy bo'lish lozim.

Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchi shaxsining irodaviy intellektual va hissiy sohalarida o'zaro muvofiqlik yo'qligini hisobga olib, topshiriqlarini va o'z – o'zini tarbiyalash vositalarini topishda har kuni yordam ko'rsatish lozim. Bu ishlarni xulosa qilganda jamoa oldida qo'llab quvvatlash orqali ularni rag'batlantirishi mumkin.

### **O'quvchilarda o'zlashtirmaslikni bartaraf etish bo'yicha tadbirlar tizimi.**

Bo'sh O'zlashtiruvchi o'quvchi o'qishdan orqada qolishini bartaraf etishga yo'naltirilgan tadbirlar tizimi har doim ham maqsuldor bo'lavermaydi. O'quvchilarni chuqur va to'liq o'rganishning yetishmasligi, yashash joyining o'zgarish va boshqa bir qator sabablarga ko'ra o'quvchilarda dastlab vaqtinchalik, keyinchalik barqaror o'zlashtirmaslik sodir bo'ladi.

Bunday hollarda o'quvchilar o'zlashtirmasliklarining oldini olish chora tadbirlari bilan bir qatorda uni yo'qotishga qaratilgan tadbirlar ham zarur bo'ladi. Agar o'zlashtirmaslikning oldini olish bo'yicha tadbirlar umum sinfiy va guruhiviy xarakterga ega bo'lsa, o'zlashtirmaslikni bartaraf etishga qaratilgan tadbirlar individual xarakterga ega bo'ladi.

Psixologik – pedagogik konsimumda o'zlashtirmaslik sabablari muhokama qilingach, hozirgi vaqtdagi asosiy sabablar aniqlanadi. O'quvchi o'zlashtirmasligining asosiy sababini bilish ko'pincha pedagogik ta'sir vositalari orasidagi qo'llashini tanlash, qisqa vaqt ichida ijodiy natija beradigan o'qishdan orqada qolishini asosiy sababini yo'qotishga qaratilgan usullarni tanlash imkonini beradi.

O'zlashtirmaslik hodisasi bilimlar hamda maxsus ko'nikma va malakalar mavjudligiga uzulish bilan tavsiflanar ekan, tanlanadigan chora – tadbirlar tuzish dasturdagi mavzularni o'zlashtirishdagi uzulishlarni bartaraf etishga qaratilishi maqsadga muvofiq.

O'quvchilar bilimidagi bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan chora va tadbirlarni tuzish maxsuldor bo'lishi uchun bilim va ko'nikmalardagi bo'shliqning chuqurligi va xarakterini birinchi navbatda aniqlash zarur. Bu maqsadda kursning qaysi bo'limlari o'zlashtirilmasligini, bu bo'limdagi qaysi tushunchalar bo'sh o'zlashtirmaslikning, tushunchaning qaysi elementlari yaxshi o'zlashtirilmagan, amaliyotda misollar yechishda, mashqlar bajarishda, o'rganilgan ko'nikmalarni amaliyotda qo'llashda qanday bo'shliqlar borligi aniqlanadi.

Bilimdagi bo'shliqlarni to'ldirishda programmashtirilgan tipdagi mashqlar katta ahamiyatga ega. Muammoni kichik qismlarga bo'lish, har biri to'g'ri o'zlashtirilganligini nazorat qilish, barcha muammoni, o'qishda orqada qolish sababini bartaraf etishda mahsuldor hisoblanadi.

Ko'pincha o'zlashtirlovchi o'quvchilar o'qida orqada qolishda o'quv ishlari o'rgatishning rolini tushunmaydilar. Ular o'zlarining o'zlashtirmaslik sababini dangasalik yoki materialni yaxshi eslab qola olmaslikdan izlaydilar. Ba'zan o'qituvchilar ham o'quv ishlarini sekin bajarish, dasturdagi zarur materiallarni yodlay olmaslik deb baholab, xatoga yo'l qo'yadilar.

## II. AMALIY QISM

### 2.1. O'zlashtirmaslikni vujudga keltiruvchi eksperemintal o'rganish va natijalar tahlili.

O'quv tarbiya jarayonini tashkil etishga ishonchli o'quv tarbiya jarayonini tashkil etishning qulay yo'llarini izlashga majbur etadi.

O'quvchilar o'zlashtirmasligiga bag'ishlangan psixologik tadqiqotlarni, ilmiy maqolalarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bu muammoni hal qilish uchun ko'p ishlar qilingan. Lekin o'qishdagi qiyinchiliklarni keltirib chiqaradigan sabablar o'zlashtirmaslikni yo'qotish va uning oldini olishga yo'naltirilgan tadbirlar, chora-tadbirlar, ya'ni o'zlashtirmaslikning oldini olish yo'llari haqidagi savollar bu muammoga qayta-qayta murojaat qilishga undaydi. O'zlashtirmaydigan o'quvchilar shaxsini o'rganish, qanday pedagogik sharoitlarda qiyinchiliklarni bartaraf e'tishga maktab dasturini muvaffaqiyatli egallashga yordam beradigan o'quvchi shaxsidagi o'zgarishini o'rganadigan tadqiqotlar zarurligini taqazo etadi.

Pedagog olimlar o'zlashtirmaslikning ko'plab sabablarini, o'zlashtirmovchi o'quvchilar tiplarini aniqlaganligi hamda ommaviy o'zlashtirmaslikning qanday usullar bilan yo'qotish bo'yicha didaktik, tarbiyaviy ishning tashkiliy – pedagogik shakl va uslublari belgilaganligining guvohi bo'ldik. Ularning fikricha, umum ta'lim maktablarida o'qiydigan barcha o'quvchilar qulay tashqi sharoitlar mavjud bo'lganda o'qituvchilar yordamida dasturda belgilangan talablarni bajarishlari mumkin. Pedagog olimlar va o'quvchilarning uzoq vaqt o'zlashtirmaslikni bartaraf etishga, o'zlashtirmaslikni yo'qotishga imkon beradigan o'quv tarbiya jarayoni xususiyatlarini o'rganadilar.

Psixologlar o'quv jarayonida namayon bo'ladigan o'zlashtirmovni o'quvchilarning shaxs xususiyatlariga, ular o'quv faoliyatining o'ziga xosliklarini aniqlashga e'tibor qaratadilar. Bitiruv malakaviy ishlarining nazariy qismida o'zlashtirmaslikka sabab bo'luvchi omillarni ilmiy – pedagogik va psixologik adabiyotlar asosida yoritib berishga urindik. Bunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv xususiyatlari, o'zlashtirmaslik sabablari, ulardagi psixik

jarayonlarning rivojlanishi haqida to'xtalib o'tdik. Boshlang'ich sinflardagi o'zlashtirmovchi o'quvchilarni o'rganish jarayonida ularning aqliy rivojlanishi xususiyatlariga, psixik rivojlanishi sustlashgan bolalar muammosiga, maktabga joylashuv jarayoni qiyin ketadigan ya'ni maktabda psixologik jixatdan tayyor bo'lmagan bolalar muammolariga to'xtalib, aynan shunday muammolarning mavjudligi kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'zlashtirmaslikning kelib chiqishiga sabab bo'lishini aytib o'tdik. Boshlang'ich sinflarda o'zlashtirmaslikning vujudga kelishiga sabab bo'luvchi omillar uzoq yillar shu sohada ishlagan, bevosita bolalar bilan amaliy faoliyatda bo'lgan, o'nlab o'zlashtirmovchi o'quvchilar bilan ishlagan va ularning o'zlashtirmaslik sababini aniqlagan boshlang'ich sinf o'qituvchilariga anketa savollari bilan murojaat qildik. Bunda biz Z.Nishanova va Z.Sherimbetovalarning o'zlashtirmaslik vujudga keltiruvchi omillar anketa savolnomasidan foydalandik. Termiz shahridagi 13 – umum ta'lim maktabining 30 nafar boshlang'ich sinf o'qituvchilariga ushbu anketa savollarini tarqatdik. Ulardan ko'rsatilgan omillardan eng muhim deb hisoblanganlarini belgilashlarini iltimos qildik (so'rovnomamiz ilovada keltirilgan). 27% o'qituvchilar bolaning o'zlashtirmasligiga ta'sir etuvchi asosiy omil sifatida ota – onalarning bola bilan shug'ullanmasligini ko'rsatishgan. O'zlashtirmovchi o'quvchi uyda ota – ona nazoratining yo'qligi tufayli dars tayyorlamaydi yoki mustaqil ravishda dars tayyorlashga qobiliyati yo'qligi tufayli ota –ona yordamiga muhtojdir. Ota – onaning vaqt ajratmasligi, bee'tiborligi yoki o'zlarining pedagogik savodsizligi sababli bunday bolalar o'quv jarayonining mohiyatini chuqur anglab yetisholmaydilar, o'quv topshiriqlarini bajarmaydilar va o'zlashtirmovchi o'quvchilarga aylanadilar. 37% respondentlar o'zlashtirmaslikning asosiy omili sifatida psixik jarayonlarning yetarlicha rivojlanmaganligini ko'rsatishgan. Bu o'zlashtirmaslikni vujudga kelishiga sabab bo'lgan eng katta ko'rsatgichni tashkil etadi.

Odam xotirasi tufayli ko'nikma va malakalar hosil qiladi, bilimini boyitadi va saviyasini kengaytiradi. O'quvchi tez yod olar ekan, demak uning xotirasi kuchli, sekin esda olib qolar ekan, uning xotirasi zaifroq.

Psixik jarayonlarning rivojlanishi yetarli darajada emas deb hisoblangan o'quvchilar, eng avvalo, bunday o'quvchilarning xotirasida nuqsonlar bo'lishi, xotira jarayonlari, xotiraning o'ziga xos xususiyatlarini, xotira tiplarini nazarda tutganligini bildirishdi. Bunday o'quvchilar ko'rish va eshitish xotiralari past darajala rivojlangan bo'ladi.

Bundan tashqari bunday o'quvchilarning tafakkur jarayonlarida ham kamchilik bo'lib, ularda analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, muhim belgini ajratish kabi tafakkur jarayonlari sust rivojlangan. Bunday o'quvchilar mustaqil fikrlashga qiynaladilar.

Psixik jarayonlarning yetarlicha rivojlanmaganligi omiliga diqqatning yaxshi taqsimlay olmasligi, ixtiyoriy diqqatning shakllanmaganligi, ongli ravishda diqqatni to'plash, taqsimlash va boshqaruv o'quvining yo'qligi ham kiradi. Bundan tashqari nutqning yaxshi rivojlanmaganligi, idrokning yaqqol emasligi, berilayotgan topshiriqlarning mohiyatini anglay olmasligi, ijodiy hayolning mavjud emasligi ham shunday omillar sarasiga kiradi.

13% respondentlarbolaning maktabda o'qishga yetarlicha tayyor bo'lmasligidan kelishi o'zlashtirmaslikni vujudga keltiruvchi omil deb hisoblashgan. Bolaning maktabga tayyor emasligi nafaqat olti yoshlilar, balki yetti yoshli bolalar orasida ham uchrab turadi. O'quvchi sonining ko'pligi bola bilan individual shug'ullanishga vaqt yetmasligi natijasida maktabga tayyor emas bolalar o'zlashtirmovchi bolalar qatoriga kirib qoladilar.

Shuningdek respondentlarimizdan 2,5% o'zlashtirmaslikning vujudga kelishiga ta'sir etuvchi omil sifatida bolaning ko'p kasal bo'lishini ko'rsatishgan.

Jismonan sog'lom bo'lmagan bola kam quvvat bo'ladi, psixik faol bo'lmaydi deya izohlashgan. Bolaning nosog'lom bo'lishining ko'p dars qoldirishiga sabab bo'ladi. Bunday dars qoldirishlar bolaning fanlarni o'zlashtirishiga ta'sir qilmay qolmaydi. Ma'lum muddatdagi o'quv materiallarini o'zlashtirmaslik, muntazam o'zlashtirmaslikka olib keladi deb baholashgan.

8,2% respondentlar bolaning o'zlashtirmaslik omili sifatida bola bilan individual shug'ullanishga vaqt yetmasligi, bunday imkoniyatning yo'qligini ko'rsatishgan.

So'rovnomani o'tkazish davridagi suhbatdoshlarimiz bola sonining ko'pligi bola bilan individual suhbatlashish va shug'ullanishga imkon bermaydi. Muloqatga kirishuvi qiyin va tortinchoq bolalar ham individual shug'ullanishga ehtiyoj sezadilar deb hisoblaydilar. Agar har bir bola bilan individual shug'ullanish imkoniyati mavjud bo'lganda, o'zlashtirmaslikning imkoniyati ham mavjud bo'lar edi.

Shuningdek tajribali o'qituvchilar bolada qiziqishning sustligi, oilaviy sharoiti, o'quvchining layoqatsizligi, bolaning ko'p dars qoldirishi ma'lum darajada o'zlashtirmaslik omili deb hisoblaydilar.

So'rovnomamizdagi ikkinchi savollar to'plash "O'zlashtirmovchilikning vujudga kelishiga kimni ko'proq aybdor deb hisoblaysiz? deb nomlanib, bunda respondentlarimiz o'zlashtirmovchilikning vujudga kelishida kimlarni ko'proq aybdor deb hisoblashishlarini belgilashdilar.

28% respondentlar bolaning o'zlashtirmasligiga ota – ona aybdor deb hisoblashishadilar va shunday javob variantini belgilaganlar. Haqiqatdan ham ota – ona farzandlarining ta'lim tarbiyasiga vaqt topmasa, uni har kuni nazorat qilmasa, kerakli yordamni bermasa, bunday o'quvchi tez orada o'zlashtirmovchi o'quvchiga aylanib qoladi.

25,5% respondentlar o'zlashtirmaslikning vujudga kelishiga o'quvchining o'zi aybdor deb javob berishdi. Bunda ko'proq o'quvchining o'qishga qiziqmasligi, loqaydsizligi, ijodiy o'quv fikrlashlari shakllanmaganligi, o'quvchining bilish jarayonining yetarlicha rivojlanmaganligi tufayli o'quvchi o'zlashtirmovchilar qatoridan joy olishi ta'kidlanadi.

14,5% sinavchilar o'zlashtirmovchi o'quvchilarning paydo bo'lishiga o'zlari, ya'ni o'qituvchilar aybdor deb hisoblashadi. Bu fikrga ham qo'shilish mumkin, shu maqsaddaki agar o'qituvchi o'quvchining o'zlashtirmayotganini ko'ra bila turib, u bilan individual shug'ullanmasa yoki o'qituvchi pedagogik qobiliyatga

ega bo'lmasa, u holda o'quvchi tez orada o'zlashtirmovchi o'quvchiga aylanib qoladi va o'zlashtirmovchilar soni ortadi.

0,5% respondentlar o'quvchi o'zlashtirmasligiga o'rtoqlari aybdor deb hisoblaydilar. Chunki kichik maktab yoshidagi o'quvchilar xarakteriga xos xususiyatlaridan biri ular ko'proq yaxshi o'zlashtiruvchi sinfdagi ilg'or o'quvchilarga o'xshashga intilishadi. Ulardan "birinchi" bo'lish istagi kuchli bo'ladi.

2% siniluvchilar o'zlashtirmovchi o'quvchilarning vujudga kelishida kim aybdorligini bilmaydilar.

10,3% o'qituvchilar bolaning nosog'lomligini asosiy sabab deb ko'rsatishgan. Bolaning nosog'lomligi va o'quvchi sonining ko'pligi o'zlashtirmaslikka katta ta'sir ko'rsatadi deb hisoblashgan.

Shuningdek 9,3% o'qituvchilar bola o'zlashtirmasligiga sabab o'quvchi sonining ko'pligi deb hisoblashadi. Sinfda bolalar sonining ko'pligi har bir o'quvchi bilan individual shug'ullanish imkonini bermaydi, qiyinchiliklar tug'diradi.

Biz tadqiqot o'tkazgan 13 maktab misolida bu muammo bilan qiziqib ko'rdik. Aksariyat sinflarda 35 -40 nafargacha bolalar bo'lib, bu o'quvchilarning nazorat qilish va baholashda o'qituvchilarga ma'lum qiyinchiliklar tug'diradi.

4% respondentlar o'quvchi o'zlashtirmasligiga sabab qilib iqtisodiy sharoitni ko'rsatishgan.

1,2% o'qituvchilar o'zlashtirmovchi o'quvchilarning vujudga kelishiga hamma aybdor deb hisoblaydilar.

Shunday qilib, o'qituvchilarning fikricha o'zlashtirmaydigan o'quvchilarning vujudga kelishida ko'proq ota – ona, o'qituvchining o'zi, o'quvchi va bolaning nosog'lomligi aybdor deb hisoblashgan. Umuman olganda har bir o'zlashtirmaslikning paydo bo'lishida alohida xarakterga ega bo'lib, o'qituvchi o'quvchi o'zlashtirmasligining asl sababini diagnostika qilgandagina o'quvchi o'zlashtirmovchiligini korreksiya qilish osonroq kechadi. O'zlashtirmaslikning vujudga kelishiga aybdor shaxslar savolnomamiz natijalarini diagramma shaklida ifodaladik

## 2.2. Ortiqchasini o'chirish metodikasi.

Ortiqchasini o'chirish metodikasi umumlashtirish va muhim belgini ajratish kabi tafakkur jarayonlari darajasini o'rganish uchun qo'llaniladi. Bu metodikani ham ikki turi bor. Predmetli va sur'atli.

Metodikaning predmedli turida kuzatuvchi material alohida qog'ozlarda berilishi shart. Xar bir qog'ozda 4 ta predmet tasvirlangan. Rasmlar oq – qora yoki rangli bo'lishi kerak. Sinaluvchi 4 ta predmetdan, umumiy belgi bo'yicha birlashuvga uchtasini tiklashi kerak. Odatda sinaluvchiga quyidagicha ko'rsatilib beriladi.

«Bu rasmlarga diqqat bilan qarang. Bu yerda 4 ta predmet tasvirlangan. Siz uchta predmetni birlashtirib turadigan umumiy narsani topib, unga nom berishingiz kerak».

Tadqiqotga birinchi topshiriqni sinaluvchi bilan bajarish, keyin sinaluvchilar mustaqil ishga kirishadi. Bu metodikadan bolalarni va kattalarni tekshirish, ularning tafakkur jarayonlarini tekshirish maksadida foydalanish mumkin. Metodikaning og'zaki varianti 11 -12 yoshli bolalar uchun qo'llash mumkin. Tajriba o'tkazish uchun so'zlar qatori kerak bo'ladi, ya'ni so'zlar qatori yozilgan maxsus qog'oz varag'i kerak bo'ladi.

Sinaluvchiga ko'rsatma: Xar bir qatorda beshta so'z bor, to'rtta so'zni bir guruhga kiritib, bu guruhga nom bering, bir so'z ortiqcha bo'lib, uni o'chirish kerak.

Quyidagi so'zlar qatorini keltirib o'tamiz.

1. Stol, stul, krovat, pol, shkaf.

endi bu yerdagi so'zlar guruhiga umumiy nom beramiz. Stol, stul, krovat, shkaf – bu mebel guruhiga kiradi. «Pol» so'zi esa bu guruh uchun begona hisoblanadi va o'chirish lozim.

2. Sut, qaymoq, qatiq, so'zima, go'sht.

Sut, qaymoq, qatiq va so'zima sut mahsulotlari hisoblanadi va ushbu guruhga kiradi, bu guruh uchun begona so'z go'sht hisoblanadi va so'zlar qatoridan o'chiriladi.

3. Botinka, etik, bog'ich, tufli, tapochka.

Botinka, etik, tufli, tapochka oyok kiyimlar hisoblanadi, bu guruh uchun begona soʻz «bogʻich».

4. bolta, arra, bolgʻa, mix, randa.

Bolta, arra, bolgʻa, randa uchun umumlashtiruvchi soʻz duradgorlik asboblari. Bu guruh uchun ortiqcha soʻz mix hisoblanadi.

5. Shirin, issiq, achchiq, nordon, shoʻr.

Bu guruhdagi shirin, achchiq, nordon, shoʻr soʻzlari uchun umumlashtiruvchi nom – maʼza, taʼm

Bu guruh uchun begona soʻz «issiq» soʻzi hisoblanadi va oʻchiriladi.

6. Terak, tol, daraxt, archa, shaftoli.

Bu guruh uchun umumiy nom – daraxtlar, daraxt soʻzi esa umumiylikni bildiradi, mavhum boʻlganligi uchun ham oʻchiriladi.

7. Samolyot, arava, odam, kema, velosiped.

Samolyot, arava, kema, velosiped soʻzlari bitta guruhga kirib, bu guruh – transportlar deb nomlanadi. «Odam» soʻzi esa bu guruh uchun ortiqcha soʻz hisoblanadi.

8. Abror, Murod, Aziz, Asqarov, Nabi.

Abror, Murod, Aziz va Nabi bu ismlar. Bu yerda ortiqcha soʻz Asqarov boʻlib, u familiya hisoblanadi. Shuning uchun bu yerdan «Asqarov» soʻzi oʻchiriladi.

9. Santimetr, metr, kilogramm, kilometr, millimetr.

Santimetr, metr, kilometr, millimetr – uzunlik oʻlchovlari. Bu yerda begona soʻz kilogramm boʻlib – u ogʻirlik oʻlchov birligidir.

10. Tokar, oʻqituvchi, vrach, kitob, kosmonavt.

Tokar, oʻqituvchi, vrach, kosmonavt soʻzlari bitta umumiy guruhga kirib, kasbni bildiradi. Kitob soʻzi esa bu qatordan oʻchiriladi, chunki kitob predmetni bildiradi.

11. Palto,plash, koʻylak, shim, tugma.

Palto,plash, koʻylak, shim, soʻzlari kiyim-kechak guruhiga kiradi. Bu yerda «tugma soʻzi» oʻchiriladi, chunki tugma kiyim boshlarning faqat tarkibiy qismini bilishi mumkin.

12. Uy, orzu, mashina, sigir, daraxt.

Ushbu guruhdagi uy, mashina, sigir, daraxt predmetlarni bildiradi, «orzu» soʻzi esa oʻchiriladi.

Toʻgʻri va notoʻgʻri javoblar bilan birga sinaluvchi qoʻllanmani qanday tushunganligini, eksperimentlar oʻz xatolarini toʻgʻirlaganida ularni qay darajada anglaganligi va toʻgʻri tushunganligi haqida ham qayd etib borish lozim. Sinaluvchining topshiriqni yechishda oʻz usulini tushuntirishga xam eʼtibor berish kerak.

Ushbu metodika boʻyicha sinaluvchilarning tafakkur jarayonlari darajasini baholashda quyidagi mezonga asoslanadi. Berilgan 12 ta topshiriq uchun umumiy ball qilib 100 ballik mezon olindi. Har bir toʻgʻri javob uchun 8,3 ball deb belgilangan.

1. 100 - ball toʻplagan sinaluvchilarda tafakkur jarayonlari darajasi yuqori.
2. – ball toʻplagan sinaluvchilarda tafakkur jarayonlari darajasi oʻrta.
3. – ball toʻplagan sinaluvchilarda tafakkur jarayonlari darajasi past hisoblanadi.

### **Muhim belgini ajratish.**

Bu metodika tafakkur xususiyatlari, predmetlarining muhim belgilarini ajratish qobiliyatini tekshirishda ifodalaniladi. Ajratilgan belgilar xarakteriga koʻra, tafakkur uslubi, yaʼni aniq va mavhum tafakkurning ustunligi haqida bilish mumkin. Ushbu metodikani 3 -4 sinf oʻquvchilarini tekshirishda qoʻllash mumkin.

Tajriba oʻtkazish uchun maxsus qogʻoz (blank) kerak boʻlib, unda soʻzlar qatori keltirilgan boʻladi. Har bir katorda bitta asosiy soʻz va qavs ichida bitta unga tegishli soʻz berilgan boʻladi. Bu soʻzilardan qavs oldida turgan asosiy soʻzga koʻproq aloqador boʻlgan ikki soʻzining tagiga chizish kerak. Tayyor blankalar sinaluvchiga tarqatilgach, tajribaning birini, asosiy talablar sinaluvchiga koʻrsatma sifatida tushuntiriladi.

1. Bogʻ (daraxt, bogʻbon, kuchuk, yer, qoʻrgʻon).

Bunda bogʻ soʻziga koʻproq aloqador soʻzlar – daraxt, bogʻbon.

2. Daryo (sohil, baliqchi, balik, suv, suv oʻtlari).

Daryo soʻziga koʻproq aloqador soʻzlar – baliq, suv soʻzlari hisoblanadi.

3. Boʻlish (sinf, boʻlinuvchi, qalam, boʻluvchi, qogʻoz)

Boʻlish soʻziga koʻproq aloqador soʻzlar – boʻlinuvchi, boʻluvchi soʻzlaridir.

4. Sport ( medal, orkestr, musobaqa, gʻalaba, stadion)

Sport soʻziga koʻproq aloqador soʻzlar – musobaqa, stadion soʻzlari hisoblanadi.

Topshiriqni bajarishda sinaluvchini koʻrsatmani tushunganligi, yoʻl qoʻygan xatolariga eʼtibor qilinadi. Agar sinaluvchi topshiriqni bajarish shartlarini tushunmagan boʻlsa, tadqiqotchi dastlabki ikki misolda bajarish zarurligini koʻrsatib beradi.

Barcha hollarda sinaluvchining topshiriqni qanday bajarganligini muhokama qilish zarur. Muhokama jarayonida sinaluvchi qoʻshimcha fikrlar bildiradi, xatolarini toʻgʻirlaydi va javoblarini toʻgʻirlaydi. Natijalar sinaluvchining aniq vaziyatli tafakkur xususiyatlarini aks ettirish bilan birga, shoshmashosharlik natijasi boʻlishi mumkin. Baʼzi sinaluvchilar bilan muhokama jarayoni shuni koʻrsatadiki, sinaluvchining belgilagan javoblari aniq tahlil asosida boʻlmay , balki tasodifiy xarakterga ham egadir. Shuning uchun ham olingan natijalar asosida sinaluvchilarning izoh berishi va muhokama qilinishi zarur.

Quyida sinaluvchi topshiriqni bajarish uchun taqdim etiladigan maxsus blankani keltiramiz.

Ilovada keltirilgan.

## 2.3 Tajriba va natijalar tahlili

O'zlashtirmaslikning vujudga kelishiga sabab bo'luvchi omillarni aniqlash bo'yicha o'tkazgan so'rovnomamizda respondentlarimizning 37% psixik jarayonlarning yetarlicha rivojlanmaganligi o'zlashtirmaslikka sabab bo'ladi deb hisoblashgan. SHu sababli biz tajriba predmetimiz ob'ekti hisoblangan 13 – o'rta umum ta'lim maktabining 4 – sinflarida bilish jarayonlarining rivojlanishini o'rganmoqchi bo'ldik. Biz dastlab 4 – sinf o'qituvchilari bilan suhbatlashdik. O'zlashtirmovchi o'quvchilarni o'qituvchilar yodamida aniqlab oldik. Barcha 4 – sinflardagi o'zlashtirmovchi o'quvchilardan bitta sinfga jamlab, ularning har birlarining o'zlashtirmaslik sabablari bilan qiziqib ko'rdik. SHuningdek tadqiqotlarimizga taqqoslash maqsadida 4 “a” sinf o'quvchilari ham jalb etdik. Dastlab o'zlashtiruvchi o'quvchilarda “ortiqchasini o'chirish” va “muhim belgini ajratish” metodikalaridan foydalanib tajribalar olib bordik. So'zlar qatori yozilgan blankalarni sinaluvchilarga tarqatdik. Ularga ko'rsatmalar berdik. “Har bir qatorga beshta so'z bor, to'rtta so'zni bir guruhga birlashtirib, bu guruhga nom bering, bir so'z ortiqcha bo'lib uni o'chirish kerak. O'quvchilar topshiriqlarni qiziqib bajarishdilar. Natijalarni olayotganimizda har bir sinaluvchi bilan qo'llanmani qanday tushunganligini, qayd etdik. Sinaluvchilarimiz to'g'ri javoblarini aksariyati izohlab bera olishdi. Metodikadagi o'chirilmagan so'zlarni bir guruhga birlashtirib, ularni nomlay olishdi. Ushbu sinfdagi o'quvchilar tafakkur jarayonlari darajasini o'rganib chiqdik. Quyida natijalar tahlilini keltiramiz. O'zlashtiruvchi sinf o'quvchilari topshiriqlarni bajarishda qiynalishmadi. Lekin bu sinfdagi ham topshiriqlarni bajarishga qiynalgan o'quvchilar bo'ldi.

Ushbu metodikani 4 – sinf o'quvchilari orasida o'zlashtirmovchi o'quvchilardan tashkil etilgan 20 – nafarlik guruhda ham ushbu metodikani o'tkazdik. Olingan natijalarni baholashdan oldin har bir o'quvchi yo'l qo'ygan xato-kamchiliklarni o'rganib ko'rdik. Ular javoblarni qay tarzda nimaga asoslanib baholashganligiga qiziqib ko'rdik. Ushbu suhbat chog'ida ular tafakkur jarayonlaridagi kamchiliklar yuzaga chiqib qoldi. O'zlashtirmovchi o'quvchilarning

aksariyati ortiqcha soʻz nima sababdan bu guruhga kirmasligini izohlab berisha olmadi. Natijalar tahlili shuni koʻrsatdiki, oʻzlashtirmovchi oʻquvchilar tafakkur jarayonlari quyi rivojlangan, muloqotga kirishishda qiyinchilik sezadilar.

Sinaluvchilarnig ortiqchasini oʻchirish metodikasi boʻyicha olgan natijalari.

| № | Oʻzlashtirmovchi<br>oʻquvchilar. | Oʻzlashtiruvchi<br>oʻquvchilar |
|---|----------------------------------|--------------------------------|
|   | X= 28,2                          | X= 70,4                        |

Jadvaldan koʻrinib turibdiki , oʻzlashtiruvchi oʻquvchilar natijalarning oʻrtacha arifmetigi qiymati 70,2 , oʻzlashtirmovchi oʻquvchilar guruhida oʻrtacha arifmetik qiymat 28,4 ga teng.

Biz ushbu guruhlarda “Muhim belgini ajratish” metodikasidan ham taqqoslar olib bordik. Biz bunda oʻzlashtirmovchi oʻquvchilarnig tafakkur uslubi, yaʼni aniq va mavhum tafakkurning ustunligini aniqlamoqchi boʻldik. Dastlab oʻzlashtiruvchi oʻquvchilar guruhida ushbu metodikani ham oʻtkazdik.

Muhim belgini ajratish boʻyicha 51,9% sinaluvchilar yuqori koʻrsatgich, 40,7% sinaluvchilarimiz oʻrta, 7,4% sinaluvchilarimiz past koʻrsatgichga ega boʻldilar. Ushbu metodikani oʻzlashtirmovchi oʻquvchilar guruhida ham oʻtkazib koʻrdik. Sinaluvchilarga tayyor blankalarni tarqatib, koʻrsatmalar berildi. Oʻzlashtirmovchi oʻquvchilar orasida berilgan topshiriqning mohiyatini tushunmaslik, topshiriqlarning bajarilish tartibini qayta - qayta soʻrash hollari kuzatildi. Ayrim oʻquvchilar esa topshiriq mohiyatini tushunmasalarda, hatto soʻramadilar ham.

Sinaluvchilarimizning natijalarini tahlil qilishda har birlarining xatolarini tahlil qildik va ulardagi munosabatni kuzatdik. Ba'zi o'quvchilar xatolarini anglab yetdilar, ba'zilarida bu holat kuzatilmadi.

Metodika 4 ta savoldan iborat bo'lganligi uchun sinaluvchilarimiz topshiriqlarni bajarish uchun kam vaqt sarflashdi. Ushbu metodikani bajarishda o'quvchilar ko'pi xatoliklarga yo'l qo'yishdi. Ulardan topshiriqlarni qay tarzda bajarishganligini, muhim belgini qanday ajratishganligini suhbat orqali aniqlab qoldik. Sinaluvchilarning aksariyati ushbu savollarimizga qiynalmasdan, fikrlarini izohlab berishdi. Ulardan olingan natijalarni quyidagi diagramma shaklida tasvirladik.

Tajribalarimiz natijalarida shu xulosaga keldiki, o'zlashtirmovchi o'quvchilarning aksariyatida muhim belgini ajratish qobiliyati sust rivojlangan. Lekin sinaluvchilarning bir qismi topshiriqlar mohiyatini to'g'ri anglab, muhim belgini ajrata olyaptilar. Bunday o'quvchilarning o'zlashtirmasligiga tafakkur jarayonidagi kamchiliklar sabab bo'lmay, balki bola bilan ota – onaning shug'ullanmasligi yoki e'tiborning yo'qligi, shuningdek individual shug'ullanmaslik oqibatida o'zlashtirmovchiga aylangan.

Muhim belgini ajratish metodikasi bo'yicha o'zlashtiruvchi va o'zlashtirmovchi o'quvchilardan olingan natijalarning qiyosiy tavsifi quyidagicha.

| № | O'zlashtiruvchi<br>o'quvchilar | O'zlashtirmovchi<br>o'quvchilar. |
|---|--------------------------------|----------------------------------|
|   | X. 85                          | X.30                             |

## XULOSA VA TAVSIYALAR

O'zlashtirmaslikni vujudga keltiruvchi omillar, o'zlashtirmovchi o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini o'rganish ta'lim jarayonida o'quvchi o'zlashtirmasligining oldini olishga yo'naltirilgan chora – tadbirlar tizimini ishlab chiqish imkonini beradi. O'zlashtirmaslikning oldini olish bo'yicha tadbirlar tizimi har bir o'quvchi real o'quv imkoniyatlarining barcha asosiy tarkibiy qismlarini kompleks rivojlantirishga, ya'ni shaxsning intellektual, irodaviy, hissiy sohalarini bir vaqtda rivojlantirishga, uning ta'lim va tarbiyasini ta'minlash, o'qishga va jamoaga ijobiy munosabatini rivojlantirish, uning ishga qobiliyatini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. O'quvchi real o'quv imkoniyatlaridan birining shakllanishi muhimligini yetarlicha baholamaslik, bu tizimning yaxlitligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada o'zlashtirmaslikning muvaffaqiyatli oldini olishga olib kelmaydi.

Bunday kompleks yondashuv maktabda, sinfda, guruhiiy va tarbiyaviy tadbirlar birgalikda olib borilgandagina amalga oshirilishi mumkin.

O'tkazilgan nazariy va eksperimental tadqiqotlar asosida quyidagi xulosaga keldik:

1. O'zlashtirmovchi o'quvchiga qo'yiladigan baho uning shaxsi shakllanishiga ta'sir qiladi.
2. Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchining kichik muvaffaqiyatini ham hammaning oldida maqtash, ozgina yuqori baholash, uni yangi muvaffaqiyatlarga undaydi.
3. Ko'pchilik o'qituvchilar o'zlashtirmaslikning vujudga kelishida ko'proq ota – ona aybdor deb o'ylashadi. Demak ota – onaning farzandlari bilan uyda shug'ullanmasliklari, nazorat qilmasliklari, o'tilgan mavzularning uy vazifalarida mustahkamlanmasligi o'zlashtirmovchilikni keltirib chiqaruvchi yetarli omildir.
4. Boshlang'ich sinflarda o'zlashtirmaslikning vujudga kelishi bolaning psixik jarayonlarining yetarlicha rivojlanmaganligi bilan bog'liq.
5. O'zlashtirmovchi o'quvchilar narsa va hodisalar orasidagi muhim belgini ajratish, predmetlarni , bir umumiy guruhga umumlashtirishga qiynalishadi.

6. O'zlashtirmovchi o'quvchilarda diqqat, xotira, tafakkur qiyin rivojlangan bo'lib, bunday o'quvchilar individual shug'ullanishga ehtiyoj sezadilar.

7. O'zlashtirmaslikni keltirib chiqaruvchi omillardan yana biri bolaning maktabda o'qishga psixologik jihatdan tayyor bo'lmay kelishidir.

8. O'zlashtirmovchi o'quvchilarda ijobiy o'quv motivatsiyasi shakllanmagan. Ma'lumki, psixologik jihatdan tayyorgarlikning asosiy tarkibiy qismi motivatsion tayyorgarlikdir.

9. Maxsus tashkil etilgan mashg'ulotlarda bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarni bilim jarayonlarini rivojlantirish orqali o'zlashtirmaslikni bartaraf etish mumkin.

10. O'zlashtirmovchilikni bartaraf etishda o'quvchi, psixolog va ota – onalar hamkorlikda ish olib borishlari muhim omil hisoblanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. I.A.Karimov “Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori”. Toshkent
  2. I.A.Karimov “O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida” Toshkent 1997 y.
  3. I.A.Karimov “O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida”. Toshkent O'zbekiston 1995 y.
  4. Ta'lim to'g'risidagi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Toshkent 1997 y.
  5. Goliza M.V. “Возрастная и педагогическая психология”
  6. Gafarov A.E, “ Pedagogik amaliyot”. Toshkent 2002 y.
  7. Gurova A. “Диагностика психического развития детей”.
  8. Davletmin M.G. To'ychieva S.M “Umumiy psixologiya” Toshkent 2002 y.
  9. Davletmin M.G. “Yosh davrlari va pedagogik psixologiya”. Toshkent 2004 y.
  10. Krutenskiy V.V ”Pedagogik psixologiya”. Toshkent 1979 y.
  - 11.Petrovskiy “Umumiy psixologiya” . Toshkent 1992 y.
  12. To'laganova G.K. “Tarbiyasi qiyin uslubiy psixologiyasi” .
  - 13.Nimatova Z.T. “Psixologik xizmat” O'zMCH 2005 y.
  - 14.Nimatova Z.T, Xalilova N.I. “Psixokorreksiya”. Toshkent 2006 y.
  - 15.Fridman L.M, Volkov K.N. “Психическая пауза”учителя. М.1985 g.
  - 16.SHerimbetova Z.SH. Nishonova Z.T. “O'zlashtirmovchi o'quvchilarning tiplari. Maktab va Hayot 2006 №6
  - 17.Sherimbetova Z.SH. “Boshlang'ich sinflardagi o'zlashtirmovchi o'quvchilarni tuzatish usullari.” Maktab va Hayot 2001 y.
  - 18.SHerimbetova Z.SH. “O'quvchi nega o'zlashtirmaydi? “Boshlang'ich ta'lim. 2002 y. №1
  - 19.G'oziyev .G'. “Psixologiya” Toshkent 1994 y.
  - 20.G'oziyev E.G' “Umumiy psixologiya” 1 – 2 tom. Toshkent 2003 y.
- Internet saytlari  
 Pedagog.uz  
 Psixol.uz  
 Google.uz

## MUNDARIJA

|                                                                                                                                      |  |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--|
| <b>KIRISH.....</b>                                                                                                                   |  |
| <b>I NAZARIY QISM .....</b>                                                                                                          |  |
| 1.3 O'zlashtirmovchi o'quvchilar muammosining pedagogika va psixologiyada o'rganilishi.....                                          |  |
| 1.4 O'zlashtirmovchilikni vujudga keltiruvchi omillar haqida.....                                                                    |  |
| 1.3 Boshlang'ich sinflarda o'zlashtirmovchilikning oldini olishga yo'naltirilgan tadbirlar.....                                      |  |
| <b>II AMALIY QISM</b>                                                                                                                |  |
| 2.1 . O'zlashtirmovchilikni vujudga keltiruvchi omillarni eksperimental o'rganish.....                                               |  |
| 2.2 “Ortiqchasini o'chirish”, “Muhim belgini ajratish” metodikalaridan foydalanish orqali o'zlashtirmaslik sabablarini aniqlash..... |  |
| 2.3 Tajriba va natijalar tahlili.....                                                                                                |  |
| <b>XULOSA VA TAVSIYALAR.....</b>                                                                                                     |  |
| <b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>                                                                                       |  |
| <b>ILOVALAR.....</b>                                                                                                                 |  |